

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB XITOIY VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI SAVDO – IQTISODIY ALOQALARI SHAKLLANISHINING O’ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

1.1. Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon xo’jaligida tutgan o’rni 6

1.2. Xitoy bilan Markaziy Osiyo respublikalari investitsiya hamda tashqi savdo aylanmasining zamonaviy holati 14

II BOB XITOIY VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING SAVDO – IQTISODIY ALOQALARI RIVOJLANISH HUSUSIYATLARI VA O’ZARO HAMKORLIK YO’NALISHLARI

2.1. Xitoyning Qozog’iston va Qirg’iziston Respublikalari bilan iqtisodiy aloqalari va ularning iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili 20

2.2. Xitoyning Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari yangi yo’nalishlar 33

2.3. Xitoyning O’zbekiston Respublikasi bilan hamkorlining asosiy yo’nalishlari..... 46

XULOSA 58

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI 65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yuritayotgan Shunday ekan, milliy iqtisodiyotni har tomonlamarivojlantirish faol tashqi iqtisodiy strategiya yuritishni talab qiladi. Milliy iqtisodiyot sohalarini rivojlantiruvchi investitsiyalar oqimini faollashtirishda to'g'ri tashqi iqtisodiy faoliyat olib borish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: "Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Shartnomani hayotga astoydil tatbiq qilish maqsadidan chekinmaydi, chunki "O'zbekiston–Xitoy munosabatlarini mustahkamlash o'ta muhim ahamiyatga ega"¹.

Hozirgi integratsiyalashuv jarayoni hamda murakkab globallashuv ta'siri ostida Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti tom ma'noda kamolot sari olg'a qadam tashamoqda. Uning tashqi iqtisodiy muhiti esa ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarga namuna vazifasini bajarmoqda. Xitoyning "Ochiqlik siyosati" esa davlatning o'z kuchiga suyanishi bilan bir qatorda samarali tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun qulay atmosferani tashkil etmoqda.

Yuritilayotgan ochiq siyosat va qulay investitsion iqlim Xitoyni AQSh dan keyingi ikkinchi xorij kapitali qo'yiladigan markazga aylantirdi. Xitoyda islohotlar davrida 370 mlrd AQSh dollaridan ortiq xorij kapitalidan foydalanildi. 17,5 mln kishini ish bilan ta'minlandi, 300 mingdan ortiq investitsion loyihalar amalga oshirildi. So'nggi 5 yil mobaynida Xitoy, jalb etiladigan chet el kapitali hajmiga ko'ra jahondagi yirik rivojlanayotgan davlat hisoblanib kelinmoqda². Bundan tashqari 1978-2010-yillar mobaynida Xitoy iqtisodiyotiga 1.06 trln. Aqsh dollar miqdorida investitsiya kiritilgan bo'lib, eng ahamiyatlisi, shu investitsiyalarning 60

¹UzA.uz

²Bailes A. Dunay P., The Shanghai Cooperation Organization as a regional security institution// The Shanghai Cooperation Organisation, Stockholm International Peace Research Institute, Policy Paper No. 17, (May 2007) <http://www.sipri.org/contents/publications/Policypaper17.html#download>

foizi Xitoyning 2001-yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lganidan so'ng kiritilganligi bilan ajralib turadi³.

Keyingi paytlarda Xitoyning ochiq siyosati global xususiyatlarini namoyon etmoqda. U nafaqat tashqi investitsiyalarga keng yo'l ochmoqda, balki xorijdagi xitoy iunvestitsiyalari mablag'lari salmog'ini oshirmoqda.

Albatta, iqtisodiyot mehanizmlarining faol harakatga kelishi natijasida xitoy iqtisodiyoti jahon xo'jaligida munosib ishtirok etmoqda. Har qanday tadbirkor, yirik sarmoyador va albatta ishlab chiqaruvchilar xitoy bozori investitsion iqlimining mo'tadilligi sabab, o'z sarmoyalarini Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy tarmoqlariga kiritishda davom etmoqdalar.

Jahon tajribasidan, hususan, Xitoy Xalq Respublikasi tashqi iqtisodiy strategiyasi shakllanishini o'rganish hamda tajribasidan keng foydalanish orqali O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Xitoy bilan Markaziy Osiyo mamalakatlari iqtisodiy hamkorligi istiqbollarini o'rganib chiqish hisoblanadi.

Mazkur maqsadga erishish uchun tadqiqot ishi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rni ko'rsatildi;
- Markaziy Osiyo mamlakatlaridatashqi savdo aylanmasi va mintaqaning iqtisodiy salohiyati tavsiflandi;
- Xitoyning Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari bilan iqtisodiy aloqalari ko'rsatkichlari tahlil qilindi;
- Xitoyning Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlario'zgarishi tahlil qilindi;
- Xitoyning O'zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorligining asosiy yo'nalishlari aniqlandi.

³ Maxmudov E.A. "O'rganilayotgan mintqa mamlakatlarida AKT sohasi" o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2010 y

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xitoy Xalq Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni shakllanish tendensiyalari, muammolar va istiqbollari xorijlik bir qator olimlar, jumladan, Ya.Berger, Yu.Ya.Velikomislov, V.Gelbras, xitoylik, L.Delyusin, Lyu Goguan, D.Djundjun, Fam Thi Lan An, Szyan Lan hamda o'zbek olimlaridan G.Melibayeva, R.Alimov, A.Isajonov, B.Sadibekova, A.Sardor, E.Mahmudovlarning ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida va sohalar bo'yicha jihatlarini o'z ifodasini topgan.

Mavzuning predmeti va ob'yekti. Mavzuning ob'yekti Xitoy Xalq Respublikasi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati istiqbollari hisoblanadi. Mavzuning predmeti esa Xitoy Xalq Respublikasi va Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy aloqalarning shakllanishi, Markaziy Osiyo respublikalarining o'ziga hos ustunlik taraflari hamda tashqi investitsiyalarni jalb qilishdagi har bir respublikaning o'ziga hos yo'nalishlari hisoblanadi.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Tadqiqot natijalari Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rni ko'rsatilganligi, Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi savdo aylanmasi va mintaqaning iqtisodiy salohiyatining tavsiflanganligi, Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari asosiy yo'nalishlarining ko'rsatib berilganligi, Xitoyning O'zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorligining asosiy yo'nalishlari aniqlanganligida o'z aksini topadi.

Tadqiqot metodologik asosini tashqi iqtisodiy faoliyatni shakllantirish bo'yicha mavjud qonunchilik bazasi, normativ hujjatlar, iqtisodiyotni nazariy jihatlarini o'rganish, mavjud holatni kuzatish, statistik tahlil qilish, Xitoy Xalq Respublikasi hamda Markaziy Osiyo mamlakatalarida o'zaro aloqalar rivoji uchun olib borilayotgan ishlar va strategiyalarni istiqboldagi holatlarini o'rganish tashkil etadi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, 2 ta bob, 5 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB XITOY VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI SAVDO – IQTISODIY ALOQALARI SHAKLLANISHINING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

1.1. Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rni

Xitoyning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni. Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy taraqqiyotning islohot davri (1979-2012yy.) o'sish sur'atlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Yillik o'rtacha o'sish sur'ati 8 foizdan oshgan, bu esa oldingi 3 o'n yillik ko'rsatkichlardan sezilarli darajada past.

Xitoyga bag'ishlangan ko'plab nashrlar, tahliliy materiallar, daydjestlar va statistika ko'rsatkichlarini tahlil qilib, Xitoyning ijobiy iqtisodiy o'sishiga sabab bo'lgan 5 ta asosiy omilni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. XXR iqtisodiyotida davlatning tutgan samarali o'rni;
2. Ko'plab ishchi kuchi resurslari hamda ish haqi yuqori bo'lmagan holda ularning sifati tobora oshib borishi;
3. Jamg'armalar va investitsiyalar ulushining yuqoriligi (30 foizdan ortiq, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa 45 foizgacha), unga qo'shimcha, avvalo, yuqori texnologiya sohalariga chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha samarali strategiya;
4. "Ochiq iqtisodiyot" ("kaifan"), u rivojlanishning eksportga yo'naltirilgan modeliga asoslangan bo'lib, valyuta tushumini oshirish hisobiga texnologiya va ilm-fanga asoslangan iqtisodiyotni tashkil qilish, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishni, zamonaviy sanoat logistikasi chizmalarini tadbiq qilishni nazarda tutadi;
5. Xitoyning qulay geografik o'rinda joylashganligi va tabiiy resurslari. Hudud shakllanishi tarixiy jarayoni davomida janubiy va shimoli-g'arbiy yo'nalishda Tinch okeaniga chiqish yo'li yuzaga kelgan, mamlakat hududida Tinch okeani qirg'oqlaridan Yevropa mamlakatlariga qisqa yer

usti yo'llari mavjud. Xitoy hududining kattaligi bo'yicha Rossiya va Kanadadan keyin dunyoda 3-o'rinda turadi⁴.

Zamonaviy Xitoy iqtisodiyotining o'ziga hos xususiyati – uning tashqi bozorga qaramligidir. Eksport hajmi bo'yicha XXR dunyoda 1-o'rinda turadi. Eksport davlat valyuta daromadining 80 foizini beradi. Eksport sohalarida qariyb 20 mln kishi band. Tashqi bozorga sanoat va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotning 20 foizi chiqariladi. Eksport nomenklaturasi 50 000 dan ziyod nomdagi mahsulotlardan iborat. Hozirgacha poyabzal, kiyim-kechak va o'yinchoqlar eng raqobatbardosh xitoy mahsulotlari bo'lib qolmoqda. Biroq elektronika, velo-, moto va avtotexnika transport va qurilish mashinasozligi eksporti ham faol rivojlanib bormoqda. XXR to'qimachilik sanoati – dunyoda birinchi o'rinda turadi, shuning uchun ushbu sanoat mahsulotlari dunyoning ko'plab mamlakatlariga eksport qilinadi.

XXR 182 mamlakat bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari o'rnatgan. Ulardan 80 tasi bilan hukumatlararo savdo kelishuvlari va bayonnomalari imzolangan. Xitoyning asosiy savdo hamkorlari rivojlangan kapitalistik davlatlar, birinchi navbatda, AQSh, Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari. Xitoy tashqi savdo aylanmasining 55 foizi ushbu davlatlar xissasiga to'g'ri keladi.

Xitoy milliy iqtisodining dunyo xo'jaligida qatnashishi masalasi borasida aniq fikr bildirish qiyin bo'lsada, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etish darajasi bo'yicha Xitoy xo'jaligini ochiq xo'jalik desa bo'ladi. Xitoy yalpi ichki mahsulotida tashqi savdo ulushi rasmiy valyuta kursi bo'yicha Syangangsiz hisoblanganda, 1990-2004-yillar davomida 30.4 foizdan 70 foizgacha ortdi. Yuan harid qobiliyati bo'yicha hisoblaganda xo'jalik ochiqligi ko'rsatkichi uncha katta emas – YaIMning 15-16 foizi, bu esa xitoy xo'jaligi tashqi almashishga uncha bog'liq emasligidan dalolat beradi. Tashqi savdo tashqi iqtisodiy aloqalarning yetakchi shakli hisoblanadi.

⁴ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120bet

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniga ta'rif. Bu respublikalarning umumiy o'xshashligi, avvalambor tabiiy geografik o'rinda, tabiiy sharoit va resurslardan foydalanishda, tarixiy kelib chiqishda, turkiy xalqlarning tarqalganligi, xo'jalik xususiyatlarida va boshqa yo'nalishlarda o'z aksini topgan.

Ayni paytda bu davlatlar ham siyosiy mustaqilikka erishib, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida rivojlanayotgan respublikalar hisoblanadi.

Markaziy Osiyo Respublikalari yagona tabiiy geografik o'lkani tashkil qiladi. Bu o'lka TURKISTON deb ataladi. Turkiston Yevrosiyo materigining o'rtasida joylashgan. Agar bu respublikalarning yaxlit geografik o'rni bilan tanishadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo davlatlarining shimoliy chegarasi Ayirtov yaqinida, janubi Kopetdog' tog'larining shimoliy etagidan tortib Pomir tog'larigacha, g'arbiy nuqtasi Kaspiy dengizining Mangishloq yarim oro'ligacha, sharqiy chegarasi esa Savr tog'larini etagidan qora Irtish daryosi vodiysigacha bo'lgan hududni o'z ichiga oladi. Bu davlatlarni har birini alohida ko'radigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi Markaziy Osiyoning shimolida joylashgan, u shimoldan Rossiya Federatsiyasi, janub va janubi-g'arbdan O'zbekiston, Turkmaniston va Qirg'iziston Respublikalari bilan, janubi-sharqda Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh. Uning maydoni kattaligi 2,7 mln.km kv bo'lib, u MDH, davlatlari ichida ikkinchi, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o'rinda turadi.

Qozog'iston Respublikasining hududi Kaspiy dengizdan - Oltoygacha, Uraldan Tyan-Shan tog'larigacha cho'zilgan. Uning sharqiy va g'arbiy nuqtalarigacha bo'lgan massofa 3 ming km, shimoliy va janubiy nuqtalari orasidagi masofa 1700 km tashkil qiladi.

Turkmaniston Respublikasi - Markaziy Osiyoning janubi - g'arbida joylashgan, bu respublika janubdan Eron va Afg'oniston, shimoldan Qozog'iston, sharq va shimoli-sharqdan O'zbekiston bilan chegaradosh Turkmanistonning g'arbiy chegarasi esa Kaspiy dengizi bilan tutash. Mamlakat hududining maydoni

488,1 km kv tashkil qiladi. Markaziy Osiyo respublikalari ichida maydoni bo'yicha II o'rinda turadi.

Qirg'iziston Respublikasi Markaziy Osiyoning shimoliy - sharqida joylashgan bo'lib, u shimol va shimoli - g'arbdan Qozog'iston bilan, janubdan Tojikiston bilan, g'arbdan O'zbekiston, janubi - sharqdan esa Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh. Uning maydoni 198,5 ming km kv.

Tojikiston Respublikasi ham Markaziy Osiyoning janubiy sharqida joylashgan bo'lib, u O'zbekiston, Qirg'iziston, Afg'oniston va Xitoy bilan chegaradosh. Hududining maydoni 143,1 ming km kv tashkil etadi.

Bu Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy iqtisodiy geografik o'rni, materikning ichkarisida joylashganligi, okean va dengizlardan uzoqligi nuqtai nazardan noqulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi⁵.

Tabiiy sharoiti va resurslariga baho. Markaziy Osiyo hududining Okeanlarga nisbatan Uzoqda joylashganligi, iqlimini keskin kontinentalligi yozi quruq, qishi esa kam yog'ingarchilikli va sovuq bo'lishini vujudga keltiradi. Tog'li o'lkalarda esa iqlim vertikal zonallik qonuniyatlarga bo'ysinib, 3000 m baland qismlarda iqlim shunday sovuqki, hududi shimoliy subarktika va Arktika rayonlari singaridir. Shuning uchun ham bu baland tog'lar muzlik bilan qoplangan.

Markaziy Osiyo hududi berk hisoblanib, eng yirik daryolari Sirdaryo va Amudaryodir. Ular barcha Markaziy Osiyo davlatlarini hududidan o'tib o'zining suvini Oro'l dengiziga quyar edi, biroq ayni paytda bu daryo suvlari yerlar betartib o'zlashtirilishi natijasida Oro'l dengiziga yetib bormayapti. Bu holat - ekologik muammoni vujudga keltirgan. Xo'jalikda ishlatiladigan suv resurslari asosan yerlarni sug'orish maqsadida foydalaniladi. Shu bilan birga tog' daryolari, - Vaxsh, Norin, Chirchiq, katta gidroenergiya resurslariga boy hisoblanadi. Markaziy Osiyo respublikalari juda katta tabiiy resurs boyliklariga ega.

⁵ Cheng Ning, "The Current Situation in Central Asia", ISS, 3-2005, pp. 34-35.

Markaziy Osiyo respublikalari orasida Qozog'iston ancha boy tabiiy resurs zahiralarga ega, ya'ni ko'mir, neft, mis, qo'rg'oshin, temir ruda va boshqalarga. Ayniqsa, rangli metallurgiya resurslari ancha katta. Polimetall rudalari havzalariga – Rudali Oltoy, Jung'oriya, Markaziy Qozog'iston tog'lari kiradi. Shuningdek, bu mamlakatda katta temir rudali konlariga – Sokolovsk - Sarbay, Lisakovsk va Ayat havzalari kiradi. MDH mamlakatlari ichida ko'mir qazib chiqarish bo'yicha Qozog'iston uchinchi o'rinni egallaydi. Asosiy konlari - Qorag'anda va Ekibastuz havzalaridir. Neft va gaz Manqishloq va Ural - Emba rayonidan qazib olinadi. Qozog'istondagi eng istiqbolli neft qazib oluvchi havza bu-Tengiz havzasidir. Shu bilan bir qatorda Qozog'iston katta fosforit zahiralarga ega bo'lib, qorator tog'larida va Aktyub oblastida bu xom ashyo qazib olinadi. Gidroenergiya resurslari ko'proq mamlakatning sharqiy qismida bo'lib, bularga - Ural, Irtish, Tobol va Ishim daryolarining resurslari kiradi.

Turkmaniston Respublikasining hududida neft, gaz, oltingugurt, boshqa kimyoviy xom ashyo resurslari mavjud. Neft qazib olinadigan rayonlar – G'arbiy Turkmanistonda – Nebit-Dag gaz konlari esa Markaziy va sharqiy Qoraqum rayonlarida mavjud. Shuningdek Qora – Bo'g'ozgol qo'lig'ida - katta miqdorda kimyo xom ashyo-mirabimet qazib olinadi.

Markaziy Osiyo miqyosida ko'mir, surma va simob qazib olish bo'yicha Qirg'iziston yetakchi o'rinda turadi, shuningdek bu yerda neft va gaz ham qazib olinadi.

Katta gidro resurs imkoniyatlariga Qirg'iziston bilan bir qatorda Tojikiston ham ega. Panj va Vaxsh daryolari yirik energetika quvvatiga ega. Markaziy Osiyo doirasida umumiy gidroenergetika salohiyatining 55% Tojikistonga to'g'ri keladi.

Shuningdek Tojikistonda, ko'mir, neft, gaz, polimetall, rudalari, volfram, surma, tosh tuzi va qurilish materiallari xom ashyosi mavjud.

Aholisi va uning joylashuvi. 1913 yilda Qozog'iston Respublikasida 5,6 mln kishi yashagan bo'lsa, 1959 yilda bu ko'rsatkich 9,2 mln kishiga, 1973 yilda 13,7 mln, 1984 yilda 15,6 mln, 1997 yilda esa 16,4 mln kishiga yetdi.

Aholining milliy tarkibida mahalliy, ya'ni qozoqlar bilan boshqa millat vakillari ruslar, ukrainlar janubiy qismlarda uyg'urlar, dungonlar, nemislar, tatarlar, o'zbeklar keng tarqalgan. Yuqorida qayd qilganimizdek, ayni paytda bu mamlakatda aholining tabiiy o'sishi unchalik yuqori emas. 1997 yil statistika ma'lumotlariga qaraganda, aholi tug'ilishi har 1000 ta kishiga 15 tani tashkil etsa, shundan o'lim, 10 ta kishini, tabiiy o'sish esa 5 ta kishiga teng. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqdan 1 yoshga yetmasdan 25 tasi nobud bo'lmoqda.

Ayni paytda, aholining 52% i shaharlarda yashaydi. Shaharlar ichida aholisi 100 ming kishidan ko'proq bo'lganlari ahamiyatli salmog'ni tashkil qiladi. Shular jumlasiga Qorag'anda, Temirtau, Jezqazgan, Aktau, Qoratau, Kentau va Almati va boshqalar kiradi. Mamlakat siyosiy mustaqillik davrida respublikaning poytaxti Almati shahridan Astana shahriga ko'chirilgan.

Turkmaniston Respublikasi aholisi notekis joylashtgan bo'lib, bu holat mamlakat katta maydonining Qoraqum cho'lidan hamda boshqa geografik sharoiti noqulay bo'lgan hududlardan tashkil topganligi bilan bog'langan.

Aholining aksariyat qismi vohalarda yashaydi. Bu yerlarda xar bir kv kmga 260 kishi to'g'ri kelsa, cho'llarda bu ko'rsatkich - 1 kishiga teng xolos. Umuman olganda aholining respublika bo'yicha o'rta zichligi 1 kv km ga 6,1 kishini tashkil qiladi. Aholining katta qismi janubiy viloyatlarda yashaydi, Amudaryo, Murg'ob, Tajan daryolari bo'ylarida, shuningdek Kopetdog' tog'larining etaklarida.

Qirg'iziston Respublikasining aholisi 1997 yil ma'lumotlariga qaraganda 4,6 mln. kishini tashkil qildi. Aholining o'sishi asosan, yuqori darajadagi tug'ilish va past darajadagi o'lim bilan bog'langan. Bu erda xar 1000 ta kishiga 24 tani, o'lganlar 8 tani, tabiiy o'sish esa 16 ta kishini tashkil qiladi. Aholining milliy tarkibida qirg'izlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yerda yana o'zbeklar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Shahar aholisi 38 % ga teng. Eng katta shaharlari Bishkek, Jalolobod, O'sh va boshqalardir. Aholi ko'proq vodiylarda, Chuv vodiysining shimolida va Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi esa, 1 kv kmga 20 ta kishini tashkil qiladi.

Tojikiston aholisi 1997 yil ma'lumotlariga qaraganda 6 mln. kishini tashkil qiladi. Tojikiston aholini tabiiy takror barpo etilishi darajasining yuqoriligi bo'yicha MDH davlatlari ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Mamlakatning asosiy reliefi shakli tog'lardan iborat bo'lganligi tufayli, aholi asosan vodiylarda zich joylashgan. Aholini yuqori darajasida zich joylashganligi Farg'ona, Hisor, Vaxsh, Kofirnixon vodiylarida kuzatiladi. Xo'jalikning bir tomonlama qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi, shaharliklar salmog'ining pastligiga olib kelgan. Mamlakatda aholining 37% shaharlarda yashaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari boy mehnat va energetik resurslarga ega. Ko'pchilik xorijliklar uchun bu hudud hali hanuz ulkanva to'liq o'zlashtirilmagan bozor bo'lib, tabiiy resurslari o'zlashtirilishi va aholi farovonligi oshishi bilan uning iste'moli salohiyati ham ortib boradi.

Markaziy osiyo hududi sayyoramizdagi energiyaga eng boy hududlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning rivojlanish istiqbollari ushbu mamlakatlar o'zlarining Yevroosiyo markazidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy holatining afzalliklaridan oqilona foydalanishlariga bog'liq. Keng transmintaqaviy hamkorlikni tashkil etish orqali Markaziy Osiyo Osiyo va Yevropa o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lishi uchun mavjud mintaqaviy infrotuzilmadan oqilona foydalanish, uning ishlab chiqarish-texnologik, transport-kommunikatsiya va ekologik tarkibiy qismlardagi yetishmaydigan infrotuzilmalarni yaratishlari zarur.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo nafaqat xalqaro munosabatlar tizimida, balki dunyo xo'jaligida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Yirik davlatlarning unga e'tibori ortishi ko'p jihatdan iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Bular: bepoyon hudud, turli xil tabiiy boyliklar, moddiy ishlab chiqarishning qator muhim sohalari rivojlanganligi, Yevropa va Uzoq sharq, Shimoliy bva Janubiy Osiyo o'rtasida tovarlar va xizmatlar tranziti yo'lida qulay joylashganligi⁶.

Hozirda Markaziy Osiyo jahon hamjamiyati, dunyoning obro'li davlatlari diqqati unga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyo – qadimda hududi

⁶ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

orqali “Buyuk ipak yo’li” o’tgan, sharq va g’arb o’rtasida ko’prik bo’lgan, turli xalqlar va madaniyatlar tutashgan mintaqadir. Mintaqaning bunday tarixiy-ananaviy roli hozirgi kunda yana ham ortmoqda. Mintaqa orqali fors ko’rfazi davlatlarini janubi-sharqiy osiyo mamlakatlari bilan va ular orqali sharqni g’arb bilan bog’laydigan yangi kommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish ishlari boshlandi.

Mintaqaning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi faollashdi, dunyoning 192 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy aloqalar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdosining qariyb 60 foizi Yevropa hamjamiyati (27 foiz), Rossiya (18 foiz), Xitoyga (13 foiz) to’g’ri keladi. Binobarin, Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasi o’sishi sur’ati Yevropa hamjamiyatidan ham, Rossiyadan ham yuqori.

Hozirda mintaqaning eng talab kuchli tovarlari bu neft, gaz, ko’mir, metallar va kon sanoatining boshqa resurslari hamda agrar sektor mahsulotlari – bug’doy, un, paxta, charm, sabzavotlar bo’lib, ular mintaqada barqaror o’sishni ta’minlaydi.

1.2. Xitoy bilan Markaziy Osiyo respublikalari investitsiya hamda tashqi savdo aylanmasining zamonaviy holati

Investitsiyalarni jalb qilishga Xitoydagi arzonchilik (ish kuchi, transport va ishlab chiqarishning boshqa omillari), balki mahalliy hokimiyatlar tomonidan investitsiyalarga soliq imtiyozlarini yaratgani ham keng darajada o'z xissasini qo'shdi. Mamlakatning rivojlanishi, aholi daraomadlarining oshishi natijasida ichki bozorda talab juda ham kengaydi va natijada XXR o'zining ichki bozori bilan ham o'ta raqobatbardosh davlatlardan biriga aylanib oldi. Natijada Yevropa va AQSHdagi tadbirkor va ishbilarmonlar kasaba uyushmalari hamda nisbatan qimmat ishchi kuchidan qochib, o'z faoliyatlari va ishlab chiqarishlarini Xitoyga ko'chira boshladilar. Bu tadbirkorlarning o'zlari hamda XXR hukumati uchun ham har tomonlama ijobiy natijalarni berdi.

1978-2010-yillar mobaynida Xitoy iqtisodiyotiga 1.06 trln. Aqsh dollar miqdorida investitsiya kiritilgan bo'lib, eng ahamiyatlisi, shu investitsiyalarning 60 foizi Xitoyning 2001-yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lganidan so'ng kiritilganligi bilan ajralib turadi⁷. Dunyo brendlarining deyarli barchasi 600 dan 450 tasi Xitoyda o'zlarining ishlab chiqarishlarini yo'lga qo'yganlar. Asosiy kapitalga investitsiyalar Xitoyda YaIMning taxminan 45-49 foizini tashkil qilmoqda.

Xitoy hukumati hozirda shu darajada rivojlanganligiga qaramasdan raqobatbardosh investitsiya muhitini yaratish hamda uni mustahkamlash uchun yangi-yangi dastur va chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda. Bu kabi ishlar qatoriga xitoyda bozor iqtisodiyotining barcha mehanizmlari to'liq ishlashi uchun bozor infrotuzilmasi yaratilishini, avtomobil va temir yo'llar qurilishi, energetik salohiyatni mustahkamlash singari ishlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Hozirda Xitoyda qurilish avj nuqtasiga yetdi. Davlat bamisoli qurilish maydonchasiga o'xshab bormoqda. Shu bilan bir qatorda hukumat rahbarlari ham aynan qurilish va sanoatni o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qilishmoqda. Yirik

⁷ Maxmudov E.A. "O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida AKT sohasi" o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2010 y

shaharlarning sanoat korxonalaridan aziyat ko'rish koeffitsienti Xitoyda boshqa davlatlarga qaraganda oshib bormoqda. Lekin bu sanoatga ayniqsa, atom energetikasini rivojlantirishga hech qanday ta'sirini o'tkazayotgani yo'q va aksincha atom energetikasini rivojlantirish jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Hozirda Xitoyda atom energetikasini rivojlantirish bo'yicha jiddiy rejalar tuzilgan bo'lib, AESlari quvvati umumiy hajmi 2020-yilga kelib 40 Gvtga yetkazish ko'zda tutilgan. Buning uchun har biri 1000 MVt quvvatga ega 32 ta atom energobloklari qurilishi talab etiladi. 209-yil ma'lumotlariga qaraganda qurilayotgan va qurilishi rejalashtirilayotgan tayyor AESlarning umumiy quvvati taxminan 27.160 Mvtga teng deb baholangan (taxminan 20ta energoblok)⁸.

Xitoyda oldindan jalb qilingan xususiy investitsiyalardan pullik yo'llar va infrotuzilma qurilishi uchun foydalanilmoqda. Aeroportlar qurilishi, mintaqalarni rivojlantirish bo'yicha yirik rejalar tuzilgan. Tezyurar avtostradalar umumiy uzunligi bo'yicha Xitoy dunyoda 2-o'rinda turadi (uzunligi 41 000 km).

Hozirda 2008-yildagi "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi"dan keyin, XXR investorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator dastur va qonunlarni ishlab chiqdi. Avvallari Xitoyning Janubiy-sharqiy qismi investorlarga boy bo'lgan bo'lsa, endilikda Xitoy hukumati investorlardan markaziy va g'arbiy qismlarga ko'chib o'tgan yoki endigina shu hududlarda faoliyat yurita boshlagan investorlar uchun juda ham qulay investitsiyaga oid imtiyozlarni yaratib bermoqda. Xitoy investitsiyalarining deyarli 90 foizini, xitoy millatiga mansub "xuasyao"lar tashkil etadi. Ular asosan Syangan, Tayvan, Makao, Singapur kabi "Osiyo yo'lbarzlari"da yashayotgan xitoy fuqaroligiga ega bo'lmagan xitoyliklar tomonidan kiritilib kelinmoqda. Xitoy endilikda o'zining shaxsiy brendlarini yaratishga harakat qilmoqda. 2000-yillardan so'ng xitoyning biznes inkubatorlari va venchurlik institutlarida yaratilgan kichik korxonalar, yirik investitsiyalar va imtiyozlar evaziga hozirda transmilliy korporatsiyalar darajasiga ko'tarilib olishdi. Bular

⁸ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

qatoriga ZTE, Huawei, Zopo, Haier kabi AKT yo'nalishidagi TMKlar yaqqol miso bo'ladi.

Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning milliy xo'jaligi rivojlanishi natijasida tashqi iqtisodiy aloqalar kengaytirildi. Mintaqa davlatlari tashqi savdo hajmini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo'ldilar. Yuqorida bayon etilganidek, mintaqaning eng yirik savdo hamkorlari bu Yevropa hamjamiyati, Rossiya va Xitoy.

Markaziy Osiyoning eng faol hamkori Singjiang uyg'ur avtonom rayoni (SUAR)dir. Geografik jihatdan Xitoyning bu hududi Markaziy Osiyoga kiradi. SUAR tashqi savdo hajmi 2008-yilda 22.4 mlrd.aqsh dollariga yetgan holda, chegara yonidagi savdo hajmi 17.5 mlrd.aqsh dollariga yetdi. SUAR va Qozog'iston o'rtasidagi savdo hajmi 9.3 mlrd.aqsh dollarini, boshqacha qilib aytganda qozoq-xitoy tovar aylanmasining 76.2 foizini tashkil etadi.

Qirg'iziston MDH, YEOIH a'zosi bo'lgan holda, dunyo savdo tashkilotiga kirgandan so'ng yirik yuk tushirish va ortish maskaniga, MDH savdo makonidagi uzilishga aylandi. Jahon banki ekspertlari bergan baholarga ko'ra, Qirg'iziston orqali har yili 7 mlrd.aqsh dollari miqdorida xitoy tovarlari olib o'tiladi, 2008-yilda Xitor tarafining ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich, 9 mlrd.aqsh dollarigacha yetgan. Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlarga qo'yilgan qo'shimcha qiymatning 10-15 foizi Qirg'iziston hududiga to'g'ri keladi. Eksportning 3 qismidan ko'pi Rossiyaga, 14 foizi O'zbekistonga, 11 foizi Qozog'istonga ketadi⁹.

Tashqi savdo hajmini hisobga olishdagi bunday nomutanosibliklar bir qator sanbiy oqibatlarga olib keladi, shuning uchun norasmiy savdogarchilikni xalqaro savdo qoidalari bilan muvofiqlashtirish, uning hajmini to'liq hisobga olish, to'liq qonuniylashtirish va belgilangan tartibda bojxona to'lovlarini to'laydigan qilish zarur. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Markaziy Osiyo mamlakatlari BMTning iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro

⁹ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

valyuta kooperatsiyasi kabi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdilar.

Ochiq iqtisodiyot asoslari va xo'jalik yuritishning bozor tamoyillarini barpo etish hamda xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida jahon xo'jaligiga integratsiyalashishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqaro savdoda faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Buning natijasida tashqi savdo hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi(1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan tashqi savdo hajmi (mlrd.AQSh dollarida¹⁰)

Yillar	Qozog'iston			Qirg'iziston			Tojikiston			O'zbekiston		
	TSA	Ex	Im	TSA	Ex	Im	TSA	Ex	Im	TSA	Ex	Im
2000	1.38	0.88	0.5	0.105	0.05	0.055	0.146	0.078	0.068	0.62	0.326	0.295
2005	4.52	2.78	1.74	0.177	0.067	0.11	0.224	0.091	0.133	0.95	0.541	0.409
2006	6.19	3.82	2.37	0.25	0.079	0.171	0.312	0.14	0.172	1.117	0.639	0.478
2007	8.05	4.77	3.28	0.355	0.113	0.242	0.392	0.147	0.245	1.423	0.899	0.524
2008	10.90	7.11	3.79	0.571	0.164	0.407	0.468	0.141	0.327	2.12	1.15	0.97
2009	7.16	4.32	2.84	0.44	0.14	0.30	0.36	0.10	0.26	2.12	1.17	0.94
2010	9.07	5.98	3.09	0.50	0.18	0.32	0.39	0.12	0.27	2.18	1.30	0.88
2011	12.61	8.81	3.80	0.62	0.23	0.39	0.41	0.12	0.29	2.55	1.50	1.05
2011 yilda 1995 yilga nisbatan, marta	9.1	10	7.6	5.9	4.6	7.1	2.8	1.5	4.3	4.1	4.6	3.6

Izoh: TSA-tashqi savdo aylanmasi, Ex-eksport, Im-import

¹⁰ Rasulova D. "Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi savdo rivojlanish xususiyatlari"/"Yoshlar va ilm-fan". XMI va Mamlakatshunoslik fakulteti, mustaqil tadqiqotchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy amaliy konferensiyasi. 25-may 2012-yil. Maqola. 133-bet

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 200-yilga nisbatan 2011-yilda Markaziy Osiyoning 4 mamlakati bo'yicha tashqi savdo aylanmasi 2.25 mlrd. dollardan 16.19 mlrd. dollargacha, ya'ni 7.2 martaga ko'paydi. Ayni vaqtda mintaq bo'yicha eksport hajmining import hajmiga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda rivojlanayotganligini ta'kidlash lozim. Hususan, tahlil qilinayotgan davr mobaynida eksport hajmi 1.33 milliard dollardan 1.174 milliard dollargacha, ya'ni 8.8 martaga o'sgan bo'lsa, import hajmi 0.92 milliard dollardan 5.53 mlrd dollargacha, ya'ni 6 barobargacha ko'paygan. Buning natijasida mintaq bo'yicha tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldo kuzatiladi. Bunday ijobiy saldo asosan Qozog'iston va O'zbekiston evaziga shakllanganligini ta'kidlash lozim. Qolgan ikki respublika tashqi savdo aylanmasida salbiy saldo kuzatiladi.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi savdo aylanmasi, xususan, eksport hajmining yuqori sur'atlarda rivojlanganligini ta'kidlash lozim. Qozog'iston respublikasi tashqi savdosi muttasil o'sib bormoqda. Ushbu davrda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 1.36 milliard aqsh dollaridan 12.61 milliard aqsh dollarigacha, ya'ni 9 barobarga, shu jumladan eksport hajmi 0.88 milliard dollardan 8.81 milliard dollargacha (10 barobarga), import hajmi 0.5 milliard dollardan 3.8 milliard aqsh dollarigacha (7.6 barobarga) o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Huddi shunday o'sishni O'zbekiston iqtisodiyotida ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda tashqi savdo aylanmasi 2000-2010-yillar davomida 0.62 milliard dollardan 2.55 milliard dollargacha (4.1 barobarga), eksport hajmi 0.326 milliard aqsh dollaridan 1.5 milliard dollargacha (4.6 barobarga), import hajmi esa 0.295 milliard aqsh dollaridan 1.05 milliard aqsh dollarigacha (3.6 barobarga) o'sganini ko'rishimiz mumkin. Eksport hajmining importga nisbatan ko'proq o'sgani 2011 yilda mamlakatimizda 0.45 mlrd dollarlik ijobiy saldo shakllanishiga sabab bo'ldi.

Qirg'iziston va Tojikistonda ham tashqi savdo aylanmasi yuqori sur'atlarda rivojlangan bo'lsada, eksport va importning mutlaq miqdorlari unchalik katta

emas. Ayni vaqtda bu ikki mamalakatda importning eksportga nisbatan yuqoriligi kuzatiladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdo siyosatining o'ziga hos xususiyati shundan iboratki, unda avvalo ananaviy mahsulotlar eksportini oshirishga va undan tushgan valyuta tushumlarini ishlab chiqarishning boshqa sohalariga sarflashga va shu orqali iqtisodiyotning bir tomonlama, hom ashyoga asoslanganligiga barham berishga alohida e'tibor berilmoqda.

Har qanday mamlakat o'z iqtisodiy manfaatidan kelib chiqib, iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantiradi. XXRning Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalarini yanada kuchaytirishga sabab bo'layotgan ayrim omillarga to'xtalib o'tsak¹¹:

1. Markaziy Osiyo mintaqasidagi boy energiya resurslari va hom-ashyo resurslari uchun kurashda XXR faolligining ortishi;
2. O'z barqarorligini ta'minlashni davom ettirgan holda, chegaraviy hududlarni qo'llab-quvvatlash;
3. Markaziy Osiyo davlatlarining arzon XXR mahsulotlariga ehtiyojlarning mavjudligi, tomonlarning bir-biriga bo'lgan bog'liqligining ortishi;
4. XXRda ortiqcha ishchi kuchining ko'pligi va xalqaro loyihalardan foydalangan holda, ortiqcha ishchi kuchini eksport qilish siyosatini amalga oshirish zarurati.

¹¹ Nigmanov A.U. "XXR va O'zbekiston respublikasining energetika sohasidagi aloqalarining rivojlanish xususiyatlari"/"Ilm-fan va barkamol avlod". "XMI va mamlakatshunoslik" fakulteti bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent 2010-yil. 109-bet

II BOB XITOIY VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING SAVDO – IQTISODIY ALOQALARI RIVOJLANISH HUSUSIYATLARI VA O'ZARO HAMKORLIK YO'NALISHLARI

2.1. Xitoyning Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari bilan iqtisodiy aloqalari va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

Qozog'iston Respublikalasi. Mustaqillikka erishgandan so'ng Qozog'iston global iqtisodiyotda jahon tovar bozorlariga neft, gaz, qora, rangli, kamyob va asl metallar hamda uran mahsuloti yetkazib beruvchi mamlakat sifatida o'zini namoyon etdi. Qishloq xo'jalik mahsulotlaridan bug'doy eksporti kelajagi porloq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Qozog'istonning rivojlanishi klassik iqtisodiy yo'nalish bo'yicha ketmoqda. Chunki nisbiy iqtisodiy ustunliklar mavjud foydali qazilmalar zaxiralari bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish va xom ashyo resurslari eksporti jadal sur'atlar bilan o'sishi samarasi o'laroq, milliy iqtisodiyot ham yuqori sur'atlarda o'sib bordi.

Qozog'iston iqtisodiyoti rivojlanishi shundan iboratki, sanoatning xom ashyo sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va moliya sohasida tashkiliy-institutsional islohotlar amalga oshirilishi natijasida mamlakatda hayot darajasi ko'tarilib, moliyaviy resurslar to'plangan holda uzoq kelajakda postindustrial xizmat ko'rsatishning texnologik rivojlanish bosqichiga o'tish ta'minlanmoqda. Qabul qilingan rivojlanish modeliga muvofiq strategik jihatdan Qozog'iston iqtisodiyoti ochiq, tovar, xizmat ko'rsatish, kapital va ishchi kuchi eksportiga yo'naltirilgan, dunyoning barcha mamlakatlari bilan raqobat va o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga asoslangan mamlakat sifatida shakllanmoqda.

Xitoyning Qozog'iston respublikasidagi manfaatlarini samarali ro'yobga chiqarishda ushbu davlatning respublikaga chegaradosh Sinjiang Uyg'ur avtonom

rayoni (SUAR) ahamiyatiga yetarli baho berish kerak. Chunki bu rayon salohiyati va geografik joylashuvi jihatidan mintaqadagi integratsion jarayonlarda unumli ijtimoiy-iqtisodiy va transport omili bo'la oladi. Xitoyning Yaqin va O'rta sharq mamlakatlari neft manbalariga bog'liqligi kamayishi barobarida, Markaziy Osiyo ning gaz va neft mahsulotlarini import qilish, o'zaro iste'mol bozorlarini yaqinlashtirish nuqtayi nazaridan, ushbu rayonga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Siyosiy va separatistik omillarni bo'rttirib ko'rsatish va ularni istiqbolda yirik tahdid sifatida talqin qilishdan ko'ra, real, pragmatic ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni aniq mehanizmlar orqali amalga oshirishga ahamiyat ko'rsatish lozim¹².

2001-2002 yillar davomida YAIM yillik o'rtacha o'sish sur'ati 11,5 foizni tashkil etdi. 2010 yilga kelib YaIMni ikki baravar ko'paytirish uchun uning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 7,2 foizni tashkil etgan¹³.

Ta'kidlash mumkinki, strategik rejani amalga oshirish borasida mamlakat iqtisodi yaxshi yo'nalish oldi. Kelajakda jadal rivojlanishni davom ettirish hamda iqtisodiyot va ijtimoiy sohada sifat o'zgarishlari olib borish zarur. Shu bilan birga, Qozog'iston o'zida yirik yoqilg'i va mineral xom-ashyo salohiyatini jamlagan, kichik iqtisodga ega mamlakat sifatida sanoatning ishlab chiqarish sohalariga investitsiya kiritish uchun katta qiziqish uyg'otmaydi. Bu iqtisodiyotni xom ashyo bozoridagi konyunktura o'zgarishlari oldida ojiz va ta'sirchan qilib qo'yadi.

Dunyo tajribasi shunday dalolat beradiki, xom ashyo resurslariga boy ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar barqaror iqtisodiy o'sishga erisha olmaydilar va jahon xom ashyo tovar bozorlaridagi konyunktura o'zgarishlariga qaram holatga tushib qoladilar. Iqtisodiyotning xom ashyo sektorlaridan katta daromad olayotgan davlat va xususiy sektor iqtisodning yangi sohalarini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lmaydi. Shu bilan birga, tabiiy resurslarga boy bo'lmagan mamlakatlar yashash

¹² S.f.n., dots., Bekmuratov I.N. "Xitoy-Markaziy Osiyo: o'zaro manfaatli hamkorlik farovonlik garovi"/TDSHI "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlari, asosiy saboqlari va milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta'siri" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2011-yil 25-aprel.

¹³ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011. 120 bet

uchun kurash shiori ostida doimiy ravishda iqtisodiyotning yangi sektorlarini rivojlantirish harakatida bo'ladilar. Biroq, uzoq kelajakda xom ashyo zaxiralari tugaydi, natijada foydali qazilmalar konlari to'liq ishlov berilgandan so'ng barqaror o'sish borasida katta muammolar yuzaga keladi.

Iqtisodiyot xom ashyo sektoridan kelayotgan foydadan to'yinib ketishi xavfini inobatga olgan holda hamda neft bahosi keskin tushib ketishining ehtimoldagi salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida, Qozog'istonda Milliy jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, neft va rangli metallarga bo'lgan dunyo narxlari belgilangan yuqori chegaradan oshishi oqibatida ko'rilgan daromad ushbu jamg'armada to'planadi. Shuningdek, bu chora Qozog'iston moliya tizimiga valuta bosimi o'tkazilishini cheklaydi va teng ayirboshlash kursini eksportni rag'batlantirish va tayyor mahsulot eksportini tutib turish darajasida turishini ta'minlaydi.

Tashkiliy-institutsional islohotlar, moliya sektori ishonchiiligini oshirish borasidagi o'sish va mamlakat eksport salohiyati o'sishining jadal sur'atlari e'tirof etilar ekan, ta'kidlash joizki, sanoatning ishlab chiqarish sohalari hamda ishlab chiqarish tusiga ega xizmat ko'rsatadigan sohalar kerakli darajada rivojlanmagan.

Qozog'istonning bugungi kungi iqtisodiyotida quyidagi muammolar mavjud:


- “iqtisodning xom ashyoga yo'naltirilganligi” jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sustligi;
- mamlakat ichida sohalararo va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya sustligi;
- ishlab chiqarish sanoati samaradorligi pastligi;
- ichki bozorda tovarlar va xizmatlarga iste'mol talabi pastligi (kichik iqtisodiyot);
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanmaganligi;
- neft-gaz va tog'-metallurgiya majmuasiga kirmagan iqtisodiyot sohalarida asosiy fondlar yil sayin eskirib borayotgani;
- aksariyat korxonalar texnik va texnologik jihatdan eskirganligi;

- ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida samarali aloqa yo'qligi;
- ITTKI sarf-xarajatlar kamligi;
- mamlakat ilm-fan sohasi bozor iqtisodiyoti sharoitiga kam moslashgani, ilmiy-texnologik mahsulotni tovar darajasiga yetkazuvchi mexanizmlar yo'qligi va buning oqibatida mamlakat bo'yicha innovatsiya takliflar darajasi pastligi;
- mutaxassis va ishchi kadrlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash zamonaviy tizimi yo'qligi;
- mamlakat moliya institutlarining iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohalariga investitsiya kiritishlariga rag'batlantiruvchi omil yo'qligi;
- xorijiy investorlarning ishlab chiqarish sanoatiga iqtisodiy qiziqishi pastligi;
- menejmentning iqtisodiyotni globalashuv jarayonlariga moslashtirish va xizmat ko'rsatishning texnologik iqtisodiyotiga o'tish vazifalariga munosib emasligi.

YAIMning 1 dollariga elektr quvvati sarfi darajasi bo'yicha, shuningdek, iqtisodiyot sohalaridagi mehnat unumdorligi bo'yicha Qozog'iston ba'zi sanoati rivojlangan mamlakatlardan 7-10 marta orqada.

2.1.1-diagramma¹⁴.

Qozog'iston Respublikasi YaIMsining yillik o'sish hajmi (2007-2010 yy.)



¹⁴ Manba: www.tradeeconomics.com agency of statistics of the Republic of Kazakhstan

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, Qozog'iston iqtisodiyotining tayyor hom ashyoga bog'lanib qolgani, uning YaIM sining 2008-2010-yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida pasayishiga olib keldi. Bu aynan neft va gaz sohasidan boshqa sohalarda o'ta sezilarli darajada tarkibiy o'zgarishlar qilinishi zarurligiga bir ishora bo'ldi desak bo'ladi.

Qozog'iston korxonalarining asosiy fondlari og'ir ahvolga tushib qolgan. 2001 yil boshlariga kelib asosiy vositalarning eskirish darajasi o'rtacha 29,7 foizni tashkil etdi. Ba'zi sohalarda asosiy vositalarning eskirish darajasi 50 foiz va undan ham ko'pni tashkil etgan. Hozirda amalda bo'lgan asosiy vositalarni yangilash uchun moliyaviy resurslarni korxona ixtiyorida qoladigan daromad hisobidan to'plash tartibi ma'naviy eskirgan asbob-uskunalarini yangilashga omil bo'la olmayapti va, hatto, uskunalarini yangilashni orqaga tortyapti. Asosiy vositalarni yangilash koeffitsiyenti 1999 yilda 8 foizni, 2000 yilda 13,8 foizni, 2010-yilda esa 25.4 foizni tashkil etgan¹⁵. O'sish neft va tabiiy gaz qazib olish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hisobiga yuz bergan.

Asosiy vositalar tarkibida eng ko'p eskirgani bu - mashina va asbob-uskunalar. Ularning eskirish darajasi 2000 yilda 42,1 foizni tashkil etgan, transport vositalari 41 foiz, inshootlar 36,5 foiz eskirgan.

Neft qazib chiqarish va metallar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda asbob-uskunalarining eskirish darajasi so'nggi uch yilda 45 foizdan 62 foizgacha bo'lgan qismini tashkil etdi. Ishlab chiqarish sanoati korxonalarida to'liq eskirgan mashina, asbob-uskuna va transport vositalari hajmi 12 foizni tashkil etdi. Bu asbob-uskunalar yosh jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham eskirishiga, mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi pasayishiga olib keladi.

90 yillarning ikkinchi yarmida XXRning Qozog'iston Respublikasiga Iqtisodiy kirib kelishi sezilarli darajada jadallashdi. 2001-2008 yillarda Xitoydan Qozog'iston Respublikasiga tovar yetkazib berish hajmi 11,3 marta oshdi, ya'ni 0,74 dan

¹⁵ Melibayeva G.A., Gaziye F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet G.A.Melibayeva, F.Sh.Gaziye F.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120bet

taxminan 8,4 mlrd. AQSH dollarigacha, umumiy tovar aylanmasi esa 1,25 dan qariyb 16 mlrd. AQSH dollarigacha¹⁶.

XXI asr birinchi o'n yilligining yarmidan boshlab, Xitoy Qozog'istonning atom sohasiga tobora katta qiziqish bildirib boshladi. 2004 yildayoq Xitoy milliy yadro kompaniyasi (CNNC) "Kazatomprom" MK bilan 2020 yilgacha uran qazib olish to'g'risida shartnomani imzolagan. Mazkur shartnomaga qo'shimcha tariqasida Xitoy va Qozog'iston o'rtasida atom energetikasi sohasida strategik kooperatsiya to'g'risida shartnoma tuzilgan. Keyinchalik Xitoy va Qozog'iston o'rtasida yadro yoqilg'isini hamkorlikda ishlab chiqarish to'g'risida kelishuv ham rasmiylashtirilgan.


Elektr energetikasi sohasidagi loyihalar. Taxminan 2005 yildan boshlab Xitoy Qozog'istonning gidro va issiqlik energetikasiga qiziqish bildirib boshladi. Amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan loyihalarda quvvat ishlab chiqaruvchi yangi stansiyalarni ishga tushirish va so'ngra ishlab chiqilgan elektr quvvatining bir qismini eksport qilish ko'zda tutilgan (shu jumladan, XXR SUARga). Hozirda faqat Chorin daryosida Mo'ynoq GESi qurilishini qaytadan boshlash loyihasi amalga oshirilmoqda, qolganlari rejalashtirish bosqichida. Mazkur loyihalarni amalga oshirish muddatlari hali aniq emas. Lekin, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini tufayli, ko'plab loyihalarni amalga oshirish muddati orqaga surilishi ehtimoldan xoli emas.

Metallurgiya sohasidagi loyihalar. Xitoyning Qozog'istonning metallurgiya sohasiga kirib kelishi so'nggi yillarda boshlandi. XXR allaqachon Qozog'iston Respublikasida aluminiy ishlab chiqarish zavodi qurilishini boshlab yuborgan, mahsulotning katta qismini Xitoyga eksport qilish rejalashtirilgan. Taxminlarga ko'ra, Xitoyning, aynan, aluminiy ishlab chiqarishga qiziqishi Pekin o'zining aviatsiya va aerokosmik sanoatini rivojlantirishga jiddiy qarayotgani bilan bog'liq, buning uchun esa juda katta miqdorda aluminiy qotishmalari zarur.

¹⁶ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet G.A.Melibayeva, F.Sh.Gaziyeu. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120bet

Telekommunikatsiya sohasidagi loyihalar. XXI asrning birinchi o'n yilligida Xitoy kompaniyalari Qozog'istonning telekommunikatsiya sohasini faol ishg'ol etishni boshladilar. Qozog'iston iqtisodiyoti jadal livojlanib, telekommunikatsiya xizmatlariga talab keskin ortayotgan sharoitda (jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan oldin) bu tabiiy hol albatta. Bugungi kunda Qozog'iston Respublikasida Xitoyning China Telecom, Bell-Alcatel, Shenzhen Zhongxing Telecom Equipment Corporation (ZTE) va Huawei Technologies kompaniyalari ishlab turibdi. Mazkur korxonalar simsiz aloqani rivojlantirish va telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha qator loyihalarni amalga oshirmoqdalar.

2.1.2-diagramma¹⁷.



Diagrammadan ko'rinib turibdiki, Xitoy hamda Qozog'iston respublikasi o'rtasida savdo aylanmasi tobora oshib bormoqda. Markaziy Osiyo respublikasi davlatlariga oid hususiyat ya'ni eksportga ko'proq urg'u berish Qozog'istonga ham tegishlidir. Bundan tashqari Xitoyning Qozog'istonga bo'lgan investitsion yordami

¹⁷ Rasulova D. "Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi savdo rivojlanish hususiyatlari"/"Yoshlar va ilm-fan". XMI va Mamlakatshunoslik fakulteti, mustaqil tadqiqotchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy amaliy konferensiyasi. 25-may 2012-yil. Maqola. 133-bet

ham yildan-yilga ortib bormoqda. Bunga misol tariqasida Xitoyning bosh kotibi Xi Jin Pining o'tgan yilgi tashrifida davlatlar 2015-yilga qadar yonilg'i mahsulotlari yetkazib berishga qaratilgan, umumiy miqdori 5 mlrd aqsh dollariga teng shartnomalar imzolashdi¹⁸. Bu kiritilgan investitsiyaning deyarli 70 foizi aynan energetika sohasiga kiritilgani ham Qozog'iston uchun energiya yetkazib beruvchilik xususiyatlarini yanada takomillashtirishga zamin yaratib berdi.

Qirg'iziston Respublikasi. Xitoyning Qirg'izistondagi iqtisodiy ishtiroki Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) va Qirg'iziston Respublikasi (QR) o'rtasida iqtisodiy aloqalar Sobiq Ittifoq parchalanganidan so'ng, ikki davlat o'rtasida 1992-yil 5-yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan keyin boshlandi. Xitoy Qirg'iziston iqtisodiyotiga kirib kelganda, munosabatlar, asosan, savdo sohasi doirasibilan cheklanib qolgan edi. 2004 yilga qadar XXRdan Qirg'izistonga mahsulot yetkazib berish hajmi yiliga 26-100 mln. AQSH dollari miqdorida bo'lgan (tovar aylanmasi esa 30-125 mln, AQSH dollari), lekin, keyinchalik Xitoy va Qirg'iziston o'rtasida savdo ko'lami jadal rivojlana boshladi. Masalan, 2004 yildan 2008 yilga qadar ikki tomonlama tovar aylanmasi taxminan 12 marta ortdi.


2007 yil yakunlari bo'yicha Xitoy va Qirg'iziston o'rtasida tovar aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 30 foizga oshdi va 984 mln. AQSH dollarini tashkil etdi (Qirg'iziston tovar aylanmasining 27,7 foizi). Qirg'iziston Respublikasidan Xitoyga mahsulot yetkazib berish hajmi 182 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa- (Qirg'iziston eksportining qariyb 17,5 foizi), Xitoydan Qirg'izistonga mahsulot yetkazib berish hajmi 802 mln. AQSH dollarini tashkil etdi (Qirg'iziston importining taxminan 29,3 foizi), 2007 yilda Qirg'izistondan Xitoyga, asosan, qora va rangli metall chiqindilari (61 foiz) va to'qimachilik xom ashyosi (asosan ko'n va jun taxminan 30 foiz) yetkazib berilgan. O'z navbatida, XXRdan keltiriladigan tovarlar, asosan, oziq-ovqat

¹⁸ **Manba:** [Cestandard.wordpress.com/CHINA'S NEW CENTRAL ASIAN INVESTMENTS: A QUICK GUIDE](http://Cestandard.wordpress.com/CHINA'S%20NEW%20CENTRAL%20ASIAN%20INVESTMENTS%20A%20QUICK%20GUIDE)

mahsulotlari va keng iste'mol mollari (72 foiz), kimyo sanoati mahsulotlari (taxminan 10 foiz), mashina va asbob-uskunalaridan (4 foiz) iborat bo'lgan.

2008 yil yakunlari bo'yicha Xitoy va Qirg'iziston o'rtasida tovar aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 47,6 foizga oshib, taxminan 14 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi (Qirg'iziston tovar aylanmasining qariyb 27 foizi va Xitoy tovar aylanmasining 0,02 foizi), Xitoydan mahsulot yetkazib berish hajmi o'tgan yil darajasida qoldi va 1,2 mlrd. AQSH dollaridan biroz kam bo'ldi (Qirg'iziston importining taxminan 33 foizi, Xitoy eksportining 0,08 foizi). 2008 yilda qirg'iz-xitoy savdosi tarkibi o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarmadi¹⁹.

2.1.3-diagramma²⁰.



Garchi XXRdan Qirg'izistonga tovar yetkazib berish hajmi aydarli darajada katta bo'lmasa-da, Xitoy uchun ushbu respublika nafaqat o'z mahsulotini sotish bozori sifatida, balki Markaziy Osiyoga va, umuman, sobiq sovet respublikalariga savdo ekspansiyasi uchun strategik ko'priq sifatida muhim. O'z navbatida, Qirg'iziston nafaqat o'z bozorini arzon xitoy tovarlari bilan to'ldirmoqda, balki


¹⁹ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011. 120 bet

²⁰ Rasulova D. "Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi savdo rivojlanish xususiyatlari"/"Yoshlar va ilm-fan". XMI va Mamlakatshunoslik fakulteti, mustaqil tadqiqotchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy amaliy konferensiyasi. 25-may 2012-yil. Maqola. 133-bet

ularni Markaziy Osiyoning boshqa respublikalariga (asosan, O'zbekistonga) va, hatto, Rossiyaning bir qator hududlariga reeksport qilish hisobiga qo'shimcha daromad olmoqda. Mazkur daromadni baholash juda murakkab masala, biroq ba'zi ekspertlarning fikricha, reeksport Qirg'izistonga yiliga kamida 250 mln. AQSH dollari miqdorida daromad keltiradi, bu taxminan respublikaning davlat budjetiga teng.

2.1.4-diagramma²¹.

Qirg'iziston Respublikasi YaIMsining yillik o'sish hajmi (2008-2014 yy.)



Quyidagi statistic ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, Qirg'iziston o'zining YaIMsini doimo yuqori ushlashga harakat qilib kelgan. 2011 yilda Qirg'izistondagi "fuqarolar urushi" davrida YaIM manfiy ko'rsatkichga ega bo'lgan. Lekin 2014-yil holatiga qaraladigan bo'lsa, YaIM ancha barqaror o'sayotganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Qirg'izistonning xitoy keng iste'mol tovarlari uchun ulkan yuk tushirish va ortish punkti sifatida ahamiyati XXI asrning birinchi o'n yilligida keskin ortdi. Chunki ikkala mamlakat jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'ldi (Qirg'iziston 1998 yilda, Xitoy 2001 yilda). Shundan keyin Xitoy mahsulotlari QR hududiga tobora ko'p miqdorda va deyarli hech bir to'siqlarsiz kirib kela boshladi. XXI asrning birinchi o'n yilligi o'rtalariga kelib, Qirg'izistonda ko'plab Xitoy savdo

²¹ Manba: www.tradeeconomics.com /national statistical committee of Kyrgyz Republic

kompaniyalari mustahkam o'rnatilgan holda ish olib bordi. Ammo mahalliy norasmiy savdogarchilik biznesi tufayli, Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari, shuningdek, Rossiyaga va qator sobiq sovet respublikalariga arzon narxlarda keng iste'mol mollari yetkazib bermoqdalar.

Tog'-kon sanoatidagi loyihalar. So'nggi bir-ikki yil ichida Xitoy Qirg'izistonning mineral xom ashyo resurslariga, birinchi navbatda, rangli va qora metall konlariga - Kuru-Tegerek polimetall konlari (Qirg'izistonning janubiy hududi) va "Ishtamberdi" tilla konlariga (Qirg'izistonning janubiy hududi) katta qiziqish bildirib boshladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so'ng Xitoy o'zining oltin valyuta zaxirasini yanada oshirish maqsadida aynan Markaziy Osiyoning tog'-kon sanoatiga katta miqdorda investitsiyalar kiritishni boshladi.

Ko'mir sohasidagi loyihalar. Qirg'izistonning ko'mir qazib olish sohasiga Xitoy 2006 yilda kirib kela boshladi. Biroq, Qirg'izistonda topilgan ko'mir zaxiralari hajmi katta bo'lmaganligi sababli, Xitoyning bu sohaga qiziqishi ham katta emas. Bu sohada, hozircha, Xitoy kapitali ishtirokida faqat bitta loyiha amalga oshirilmoqda, bu - O'sh viloyati hududida ko'mir qazib olish ishlari.

Neft-gaz sohasidagi loyihalar. Qirg'izistonda neft va gaz sanoat zaxiralari hali topilmagan. Qirg'izistonda topilgan neft zaxiralari hajmi atigi 6,3 mln. tonnani, gaz zaxiralari esa 6 mlrd. kubometrni tashkil etadi. Qirg'izistonda yiliga 70-90 ming tonna neft qazib olinadi, gaz qazib olish hajmi esa juda oz, ba'zi baholarga ko'ra yiliga 25 mln. kubometrdan oshmaydi. Bayon etilganlarni inobatga olgan holda, Xitoyning Qirg'iziston neft-gaz sohasiga qiziqishi Markaziy Osiyodagi uglevodorodlarning sanoat zaxiralariga ega boshqa respublikalari, ya'ni Qozogiston, Turkmaniston va O'zbekiston neft-gaz sohasiga bo'lgan qiziqishiga nisbatan juda kam, Shu bilan birga, 2008 yil kuziga qadar kuzatilgan energiya resurslari bahosi yuqori darajada bo'lgan vaziyatda xitoy biznesi Qirg'iziston iqtisodiyotining bu sohasida ham mustahkam o'rnatilishga harakat qildi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi rivojlanib borayotgani inobatga olinsa, taxmin qilish mumkinki, yaqin kelajakda Xitoyning Qirg'iziston neft-gaz sohasiga qiziqishi ortmasligi tabiiy.

Elektr energetikasi sohasidagi loyihalar. Qirg'iziston ulkan gidroenergetika salohiyatiga ega bo'lib, uning hajmi yiliga taxminan 142,5 mlrd. kVt/s ni tashkil etadi, aslida esa yiliga atigi 10 mlrd. kVt/s elektr quvvati ishlab chiqariladi. Hatto, sovet davrida ham bu salohiyatdan faqat 10 foizga foydalanilgan. Biroq, Qirg'iziston bilan chegaradosh Xitoyning Singjiang Uyg'ur avtonom rayonida sanoat ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan Xitoy gidroelektrostansiya (GES)larini qurish va Qirg'izistondan elektr quvvati olish masalalariga qiziqish bildirmoqda. Shunga qaramay, hozircha Qirg'iziston gidroenergetika sohasida Xitoyning loyiha faolligi "kelajak rejalari"ni muhokama qilish chegarasidan chiqmadi. Rejadagi ilg'or loyihalar ichida faqat Norin daryosida GES qurilishi loyihasi diqqatga loyiq. Biroq, 2005 yil bahori hodisalari va respublika rahbariyati o'zgarishi bu rejalarni buzdi va shartnomalar bekor qilindi. Biroz vaqt o'tgach, respublika hukumati tepasiga K.Bakiyev kelgandan so'ng, tomonlar gidroenergetika sohasida hamkorlik masalalarini muhokama qilishga qaytdilar, ammo rejalarning birontasi amalga oshgani yo'q.

Qurilish materiallari sohasidagi loyihalar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar Qirg'izistonda hamda unga qo'shni respublikalarda, birinchi navbatda, Qozog'istonda qurilish ishlari jadal rivojlanishi sababli, qurilish materiallariga bo'lgan doimiy talab Xitoy investorlarining qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasiga qiziqishini uyg'otdi. Xitoyliklar Qizil qiy sement zavodi (O'sh viloyati, Qirg'izistonning janubiy qismi), Tolos viloyatida sement va g'isht zavodlari (Qirg'izistonning g'arbiy qismi) qurilishiga e'tibor qaratdilar.

Yengil sanoat sohasidagi loyihalar. Qirg'iziston yengil sanoati sohasida Xitoy kompaniyalari faolligi yuqori emas va 2009 yil boshida faqat bitta loyiha bilan cheklangan, lekin bu loyiha, ya'ni To'qmoq shahrida (Qirg'izistonning shimoliy qismi) selluloza-qog'oz fabrikasi qurilishi qachonlardir Qirg'iziston uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Loyiha 2000-2002 yillarda Xitoy hukumati ajratgan 7,4 mln. AQSH dollari miqdorida qarz va XXR EKSIM Banki ajratgan 14,7 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablaglari hisobiga Xitoyning Complant kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan.

XXR hukumati Qirg'iziston uchun muhim bo'lgan turli masalalar yechimi uchun, Qirg'iziston infratuzilmasini rivojlantirish uchun tez-tez grantlar ajratadi. XXR hukumati Qirg'izistonga qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, maktab va kasalxonalar qurilishi uchun qator grantlar ajratdi. Mazkur grantlarning umumiy qiymati 9,1 mln. AQSH dollari miqdorida baholanmoqda, shu jumladan, SHHT sammitini o'tkazish uchun ham grant ajratilgan. 2007 yilda XXR hukumati Qirg'izistonga shu yili Bishkek shahrida SHHT sammitini o'tkazish uchun 7,4 mln. aqsh dollari miqdorida grant ajratdi.

Umuman olganda, Xitoyning Qirg'izistonda savdo sohasidagi iqtisodiy ishtiroki hali keng quloch yozmagan. Garchi hozirda Qirg'iziston XXR uchun muhim bo'lgan xitoy mahsulotlari tranziti uchun xizmat qilsa-da, Xitoyning, aynan, loyiha-investitsiya faolligi ko'lami torligi mazkur Markaziy Osiyo respublikasi Pekinda katta iqtisodiy qiziqish uyg'otmayotganidan dalolat beradi. Bir tomondan, bunga sabab Qirg'iziston iqtisodiyotining o'zi katta emasligi, sanoat deyarli yo'qligi va XXR uchun ahamiyatli bo'lgan uglevodorod resurslari yo'qligi, shuningdek, Qirg'iziston Respublikasida yuzaga kelgan o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va ichki siyosiy vaziyat. Ikkinchi tomondan, nazariy jihatdan olganda, Xitoyning Qirg'izistonga qiziqishi ortishi gidroenergetika va tog'-kon, shuningdek, transport-kommunikatsiya sohasidagi keng ko'lamli loyihalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin edi.

Lekin hozirda xorijiy manbalarda ham Xitoyning Qirg'iziston iqtisodiyotida investitsiyalari haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Lekin aynan ta'lim yo'nalishida har yili 1.500 talabani xitoy hukumati o'zi ajratgan grantlar asosida o'qishga chaqiradi²². Bu ham albatta qaysidir ma'noda Xitoyning qo'shni davlatlar bilan o'ta ehtiyotkorona siyosatidan dalolat beradi.

²² Manba: [Cestandard.wordpress.com/CHINA'S NEW CENTRAL ASIAN INVESTMENTS: A QUICK GUIDE](http://Cestandard.wordpress.com/CHINA'S_NEW_CENTRAL_ASIAN_INVESTMENTS:A_QUICK_GUIDE)

2.2. Xitoyning Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari yangi yo'nalishlar

Tojikiston Respublikasi. Ikki mamlakat rahbarlari doimiy aloqani saqlab turadilar, xalqlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar kun sayin jadallashmoqda. Tojikiston Respublikasi (TR) Prezidenti I.Raxraonov Xitoyga uch marta rasmiy tashrif bilan borgan va ikki marta "Shanxay beshligi" (Shanxay hamkorlik tashkiloti) davlatlari sammitida ishtirok etish uchun tashrif buyurgan.

Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik tinimsiz rivojlanmoqda, Xitoy Tojikistonga milliy iqtisodiyotni tiklashda faol yordam bermog'ida, 92,55 mln. xitoy yuani miqdorida beg'araz yordam ko'rsatdi. Mablag' Kulom shifer zavodi qurilishi, Tojikiston telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish va shu kabi maqsadlarga sarflandi. Hozirda Dushanbe shahri va Tojikistonning boshqa shaharlari ko'chalari bo'ylab Xitoy tomonidan berilgan 60dan ortiq avtobus aholiga xizmat qilmoqda. Ushbu avtobuslar xitoy va tojik xalqlari o'rtasidagi do'stlik hamda yaxshi qo'shnichilik belgisiga aylandi. Bundan tashqari, XXR hukumati Tojikistonga Dushanbe tamaki fabrikasini qayta qurish, "Rishta" ip-yigiruv fabrikasi qurilishi va boshqa ob'yektlar uchun bir necha o'n million xitoy yuaniga teng miqdorda imtiyozli kreditlar ajratdi. Xitoyning Singjiang shahridan kelgan mutaxassislar Sug'd viloyatining paxta dalalarida tomchilab sug'orish bo'yicha tajribalar o'tkazib, katta natijalarga erishdilar va ularning tajribasi Tojikiston bo'yicha keng tatbiq etiladi.


2001 yil aprel oyida Dushanbeda savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha xitoy-tojik qo'shma hukumat qo'mitasi o'zining birinchi yig'ilishini o'tkazdi. Yig'ilishda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari o'rganildi va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

1992-2003 yillar davomida tojik-xitoy savdosi hajmi 5 mln. dan 15 mln. AQSH dollari o'rtasida o'zgarib turdi. 2004 yilda Xitoy va Tojikiston o'rtasida "Kulma" dovoni orqali avtomobil transporti yo'lga qo'yilganidan so'ng (hozircha faqat yoz oylarida ishlaydi) hamda ajratilgan kreditlar hajmi keskin oshirilganidan so'ng,

Tojikistonning iqtisodiy hamkori sifatida Xitoyning ahamiyati oshib bordi. Binobarin, 1992-2004 yillarda Xitoydan Tojikistonga mahsulot yetkazib berish hajmi yiliga 30 mln. AQSH dollaridan oshmagan bo'lsa (tovar aylanmasi esa yiliga 32 mln. AQSH dollaridan oshmagan), 2004-2008 yillar davomida Xitoydan Tojikistonga mahsulot yetkazib berish hajmi 20 martadan ko'p oshdi, ya'ni 29 dan 646 mln. AQSH dollarigacha (tovar aylanmasi esa 32 dan 755 mln. AQSH dollariga yetdi)²³.

2008 yilda Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi tovar aylanmasi yana taxminan 10 foizga oshdi va 755 mln. AQSH dollarini tashkil etdi (Tojikiston tovar aylanmasining qariyb 16 foizi, Xitoy tovar aylanmasining 0,03 foizi). Tojikistondan Xitoyga mahsulot yetkazib berish hajmi 109 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa (Tojikiston eksportining 7,3 foizi, Xitoy importining 0,01 foizi), XXRdan import hajmi esa 646 mln, AQSH dollariga yetdi (Tojikiston importining taxminan 20 foizi, Xitoy eksportining 0,045 foizi).

2.2.1-diagramma²⁴.



²³ Melibayeva G.A., Gaziye F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

²⁴ Rasulova D. "Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi savdo rivojlanish xususiyatlari"/"Yoshlar va ilm-fan". XMI va Mamlakatshunoslik fakulteti, mustaqil tadqiqotchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy amaliy konferensiyasi. 25-may 2012-yil. Maqola. 133-bet

Bundan tashqari, Tojikiston va Xitoy o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri avtomobil yo'li ochilishi hamda Pekin tojik iqtisodiyotini keng ko'lamda kreditlashni boshlagani nafaqat savdo aylanmasi hajmi keskin oshishiga olib keldi, balki Xitoyning Tojikistonga iqtisodiy kirib kelishiga katta turtki bo'ldi. Xitoy Tojikistonga turli ijtimoiy ahamiyatli loyihalarga imtiyozli kreditlar ajratgan holda TR iqtisodiyotini kreditlash taktikasidan faol foydalanishni boshladi.

Harbiy va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik ham muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Xitoy, Tojikiston va boshqa manfaatdor davlatlar tashabbusi bilan tashkil etilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan birgalikda kurashish masalalarida bir yechimga kelindi. 2001 yil iyul oyida "Terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurash borasida hamkorlik qilish to'g'risida Shanxay konvensiyasi" imzolandi. Xitoy va Tojikiston Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida va ikki tomonlama munosabatlarda xavfsizlik borasidagi hamkorlikni kuchaytirmoqdalar. Bu mintaqada hamda butun jahonda tinchlik va barqarorlikni himoya qilishda juda muhim ahamiyatga ega.

Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi harbiy aloqalar ham sekin-asta rivojlanmoqda. Tomonlar ikki davlatga safarlar uyushtirdilar, bu esa ikki armiya o'rtasidagi do'stona aloqalar chuqurlashishida va barcha sohalarda xitoy-tojik munosabatlari rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. 2006 yil kuzida tarixda birinchi marta qo'shma o'quvlar o'tkazilishi Tojikiston Respublikasi Harbiy kuchlari va Xitoy Xalq ozodlik armiyasi harbiy hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirish yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Ma'rifat va madaniyat sohasidagi hamkorlik kun sayin kengayib bormoqda. Ikki davlat tomonidan imzolangan Ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida kelishuvga muvofiq har yili tojikistonlik talabalar Xitoyga o'qishga yuboriladi, Xitoy talabalari esa Tojikistonda tahsil oladi. Tojikistondagi XXR elchixonasi ushbu oliy o'quv yurtlari bilan yaqin aloqalarni qo'llab-quvvatlash asnosida ularga xitoy tilida darsliklar, lug'atlar va boshqa kitoblar, shuningdek, lingofon-o'qitish tizimi va sun'iy yo'ldosh (sputnik) dan ma'lumot qabul qilish uskunalarini hadya qildi. Bu esa

talabalarga Xitoy bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. O'z navbatida, XXR Ta'lim vazirligi Tojikistonga talabalarni xitoy tiliga o'qitish uchun o'qituvchilar yubordi.

Respublika iqtisodiyotiga qiyoslaganda Xitoyning Tojikistondagi iqtisodiy ishtiroki katta ko'rinadi. Biroq, mazkur ishtirok savdo, shu jumladan, norasmiy savdogarchilik, moliyaviy yordam (imtiyozli kreditlar va grantlar tariqasida) ko'rsatish bilan chegaralanadi. 2008 yil oxiri holatiga ko'ra, Xitoy tomonidan Tojikistonga ajratilgan kreditlar va investitsiyalar hajmi 640 ml. AQSH dollari miqdorida baholangan. Bundan tashqari, Xitoy Tojikistonda 81,6 mln. AQSH dollarilik aktivlar sotib olgan. Tojikiston iqtisodiyotiga jalb qilingan Xitoy moliyasining aksariyat qismi kreditlardan iborat bo'lib, hisob-kitoblarga ko'ra kreditlar miqdori 600 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Biroq, Tojikiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri Xitoy investitsiyalari hajmi katta emas, ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra 36 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. O'ziga xos tomoni shuki, 2008 yil boshida Tojikistonda atigi 40 ta xitoy-tojik qo'shma korxonalari faoliyat yuritgan. Lekin Xitoyning yangi bosh kotibi Xi Jin Pin Turkmaniston gaz quvurlarini Tojikiston orqali o'tkazish borasida Bishkekda uchrashuvda, Tojikiston iqtisodiyotiga 2015-yilga qadar 3 mlrd aqsh dollari miqdorida investitsiyalar ajratilishi borasida qator hujjatlar imzolagan²⁵.

Elektr energetikasi sohasidagi loyihalar. Tojikiston elektr energetikasi sohasi Xitoyning qator loyihalarni amalga oshirish uchun o'z moliyaviy resurslarini yo'naltirgan birinchi sohalardan bo'ldi. Mazkur loyihalarga muvofiq Zarafshon GESi hamda "Lolazor-Xatlon" va "Janub-Shimol" yuqori voltli elektr uzatish tarmog'i qurilishi hamda Obinxiqob daryosi (Vaxsh daryosi irmog'i) etagidan 23 km uzoqlikda 2-Nurobod GESi qurilishiga tayyorgarlik ishlari rejalashtirilgan.

Doimo rivojlanib kelayotgan Xitoy-Tojikiston do'stona va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari mustahkam poydevorga ega. Birinchidan, bu ikki davlat iqtisodiy rivojlanishining ob'yektiv talabi. Hozirgi kunda Xitoy islohotlar va ochiqlik

²⁵ Manba: Cestandard.wordpress.com/CHINA'S_NEW_CENTRAL_ASIAN_INVESTMENTS:A_QUICK_GUIDE

siyosatini olib bormoqda, "g'arbiy qismni o'zlashtirish" strategiyasini amalga oshirmoqda. Tojikiston iqtisodiyoti tiklanmoqda. Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi do'stona, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik ikki mamlakat xalqlarining tub maqsadlariga xizmat qiladi va hamkorlikda iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, bu munosabatlar Xitoy va Tojikistonda barqarorlikni himoya qiliishga asos bo'lib xizmat qiladi. Terrorizm, separatizm va ekstremizm nafaqat Markaziy Osiyo, shu jumladan, Tojikistonda tinchlik va barqarorlikka tajovuz qilmoqda, balki Xitoy uchun ham haqiqiy xavf tug'dirmoqda. Bunday hamkorlik yuqorida bayon etilgan davlatlar hududiga kirib kelishini oldini oladi va ularni to'liq bartaraf etadi.

Uchinchidan, ushbu mamlakatlar xalqlari o'rtasida mustahkam o'zaro ishonch munosabatlari yuzaga kelgan va o'xshash madaniy an'analar mavjud. Xalqlarda chuqur ildiz otgan do'stona tuyg'ular ushbu ikki mamlakat o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini bog'lab turuvchi va saqlovchi mustahkam rishtaga aylandi.

2007 yil 16 yanvarda Tojikiston Respublikasi Prezidentining Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi chog'ida birinchi "Tojikiston-Xitoy" investitsiya anjumani bo'ldi. Anjuman Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmonov va XXR Davlat Kengashi raisi o'rinbosari U xonim, Tojikiston va Xitoyning yetakchi kompaniyalari va tadbirkorlari ishtirokida o'tdi. Anjumanda so'zga chiqqan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmonov bugungi kunda kapital, texnologiya va mutaxassislar ishtirokida qirqdan ortiq Xitoy korxonalari qariyb ellikta loyihani amalga oshirayotganlarini ta'kidladi, ulardan eng yiriklari "Dushanbe-Chanak" avtomobil yo'lini qayta qurish va uning ichida "Shahriston" tunneli qurilishi, "Shar-Shar" tunneli, "Shimol-Janub" EUT-500 va "Lolazor-Xatlon" EUT-220 yuqori voltli elektr uzatish tarmoqlari qurilishi va boshqalar.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti o'zining vaqtincha qarorgohida Xitoyning EKSIM Bank, Xitoy Davlat taraqqiyot banki, CSTIC Group, Shanghai Bell Alcatel,

Huawei, ZTE, China Road & Bridge kabi qator yirik kompaniyalari va banklari rahbarlarini qabul qildi.

SUAR XXRning qudratli sanoat mintaqasi bo'lib, o'zining Markaziy Osiyodagi qo'shnilaridan rivojlanish borasida ancha oldinda. Mintaqa sanoati 6,3 mingta korxonadan iborat bo'lib, ularda yiliga 45 mlrd. yuan ishlab chiqariladi, shu jumladan 19,4 mln. tonna neft, 28,1 mln. tonna ko'mir, 19,7 mlrd. kVt/s elektr quvvati, 1,3 mln. tonna po'lat, 9,8 mln. tonna sement va hokazo. 2005 yilda 7,94 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan SUAR tashqi aylanmasi hajmi u mintaqa iqtisodiyotida salmoqli o'rin egallashini ko'rsatadi²⁶.

Shu munosabat bilan, umumiy chegaralar hisobiga SUAR Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarida katta ahamiyatga ega. Xom ashyo va ba'zi turdagi yarim tayyor mahsulotlarni inobatga olmasa, avtonom rayonning sanoat mahsulotlariga Xitoyning markaziy provinsiyalarida talab kam, aynan shu hoi SUARni g'arbgaga Markaziy Osiyo tomon siljishishga undaydi.

Xitoy chegaradosh mintaqalar bilan hamkorliksiz SUARni rivojlantira olmaydi va shunday hamkorlikni yo'lga qo'yish Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan Xitoy siyosatining o'zagi bo'lib xizmat qilmoqda. XXR uchun ular suv va quvvat manbayi, shuningdek, mahsulot sotish bozori va tranzit ko'prikdir. Xitoyning Tojikistonga nisbatan siyosatini shunday ifodalash mumkin: qo'shningga seni o'zingni bezovta qilayotgan muammolarni yechishga yordam ber. Bu SHHT doirasida Xitoy olib borayotgan siyosatda yaqqol ko'rinadi.

Tojikiston bozori SUAR korxonalari mahsulotlarini sotish bozorlaridan biri, lekin shu bilan uning ahamiyati chegaralanib qolmaydi. Bu jihatdan Xitoy uzoq kelajakni ko'zlamogda, Afg'onistonda vaziyat barqarorlashganidan so'ng keng ko'lamli xalqaro hamkorlik boshlanadi, shunda Xitoyga janubiy Osiyoning g'arbiy qismiga, Afg'onistonning shimoliy va g'arbiy qismlari, Turkmaniston va Eronga yo'l ochiladi. Xitoy Pokistonga olib boruvchi va Janubiy Osiyoning sharqiy

²⁶ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

qismiga chiquvchi yo'lga ega. Tojikiston esa ushbu mintaqa bilan aloqalarni kengaytirish imkoniyatini beradi.

Bu hol Xitoyni SUARda avtomobil va temir yo'l tarmog'ini faol rivojlantirishga, shoshilmasdan muzokaralar olib borishga va chegaradosh mamlakatlarda yo'llarni rivojlantirish ishlarini olib borishga undaydi. G'arbni ishg'ol qilishda hal qiluvchi payt 5-10 yildan keyin keladi, hozirda Xitoy ushbu ishg'ol uchun asos yaratmoqda.

Moliya sohasidagi loyihalar. Bundan keyin Tojikiston va XXR moliya korxonalari o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar xitoy yuanida amalga oshiriladi, Ikki tomonlama moliyaviy hamkorlikda Xitoy valutasidan foydalanish to'g'risidagi kelishuvni 15 oktabrda Pekinda Tojikiston Davlat jarag'arma banki (DJB) "Amonatbank" boshqaruvi raisi Maxmadamin Maxmadarninov va XXR Davlat taraqqiyot banki (DTB) boshqaruvi raisi Chen Yuan imzoladilar.

Uchrashuv yakuni bo'yicha davlat banklari rahbarlari besh yillik hamkorlik rejasini ishlab chiqishga kelishib oldilar. Bu rejada asosiy e'tibor istiqbolli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga qaratiladi.

Tojikiston ekspertlari mazkur kelishuvni ijobiy baholamoqdalar va kelishuv har ikkala tomon uchun birdek manfaatli deb, hisoblaydilar, chunki u Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi savdoga turtki bo'ladi, uning bahosini pasaytiradi va to'lovlar qulayligini ta'minlaydi.

Iqtisodchi Karira Ismatovning fikricha, Xitoy kichik qo'shni mamlakatlarda o'z valutasini AQSH dollariga muqobil valuta sifatida joriy qilishga harakat qiladi. "Yevroosiyo mintaqasida yoki, hech bo'lmasa, Xitoy yetakchi o'rinlardan birini egallaydigan Shanxay hamkorlik tashkiloti hududida yuan bunday rol o'ynashga qodir", - deya ta'kidladi ekspert²⁷. Ismatovning fikriga ko'ra, Xitoy Tojikistonga kredit ajratishdan manfaatdor, chunki bu Markaziy Osiyo respublikasi jahon me'yorlari bo'yicha davlatlararo kreditlar bo'yicha yuqori foiz stavkalariga rozi,

²⁷ www.China-daily.com


Markaziy Osiyoga ajratilgan kreditlarning yarmi Tojikiston uiushiga to'g'ri kelishi bejiz emas.

"O'z navbatida, tojik biznesmenlari va moliyachilari uchun eksport-import operatsiyalari bo'yicha qanday valutada ishlashning farqi yo'q - dollardami yoki yuandami. Asosiysi - investitsiyalar va kreditlar olish, ular hozir respublika uchun juda zarur. Xitoy yuanda hisob-kitobga o'tish ikki mamlakat savdo-iqtisodiy hamkorligini yangi bosqichga ko'taradi va yaqin bir ikki yil ichida Xitoy Tojikistonning asosiy tashqi iqtisodiy hamkoriga aylanadi", - dedi so'zining oxirida ekspert.

Umuman olganda, Xitoy va Tojikiston o'rtasida iqtisodiy munosabatlar so'nggi yillarda keng quloch yozib bormoqda va respublika iqtisodiyoti, ayniqsa, elektr energetikasi, aloqa va avtotransport kommunikatsiyasi sohalari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'zining TRda ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida Pekin tojik iqtisodiyotini kreditlash siyosatini davom ettirishni maqsad qilib qo'ygan. XXR Raisi Xu Szintao o'zining 2008 yil avgust oyida Dushanba shahriga qilgan tashrifi chog'ida EKSIM Bank Tojikistonga 400 mln. AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit ajratish imkoniyatini o'rganayotganini ma'lum qilgani bejiz emas. O'z navbatida, Tojikiston mamlakat iqtisodiyotiga Xitoy kirib kelishiga har tomonlama sharoit yaratadi.

2.2.2-diagramma²⁸.

Tojikiston Respublikasi YaIMsining yillik o'sish hajmi (2011-2014-yy.)



²⁸ Manba: www.tradeeconomics.com/ National Bank of Tajikistan

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Tojikiston Respublikasi o'zining yaxshi va doimiy o'sishini moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin ancha ta'minlab kelmoqda. Xitoy bejizga O'zbekiston hamda Tojikiston Respublikalariga katta miqdorda investitsiyalar, shu bilan bir qatorda, doimiy yaqin aloqalarda bo'lib kelmayapti. Markaziy Osiyoda Xitoyning eng yirik savdo hamkori Qozog'iston bo'lishiga qaramay (12 %), O'zbekiston bu ro'yxatda 3-o'rinda turibdi (10 %). Tojikiston esa Xitoy uchun muhim bo'lgan Turkmanqazning transit yo'lida joylashgan. Shu tufayli ham O'zbekiston hamda Tojikiston Xitoy bilan doimiy yaqinlik aloqalarida bo'lib kelishmoqda.

Bundan tashqari Markaziy Osiyodek o'ta murakkab vaziyatga ega kontinentda bu ikki respublikaning nisbatan tinch va siyosiy barqaror, iqtisodiy rivojlanish holati albatta Xitoy uchun ham o'ziga hos garov vazifasini o'taydi. Bunga yorqin sababni 2011-yilda Qirg'izistondagi notinch vaziyat natijasida SUAR ham o'ziga yarasha talofatlar ko'rdi. Shunday ekan tinchlik va iqtisodiy barqarorlik uchun Xitoy Tojikistonni barcha jihatlardan qo'llashi tabiiydir.

Xitoy Tojikiston uchun "zamonaviy dunyoga sharqiy deraza" vazifasini o'taydi va uning siyosat va iqtisodiyot, ilm-fan va ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda kechayotgan global integratsiyalashuv jarayonlarida ishtirokini kafolatlaydi. Shubhasiz, mahalliy xususiyatlar va xo'jalik yuritish an'analarini inobatga olgan holda iqtisodiyot, ilm-fan va ta'lim sohasidagi islohotlar va yangilanishlar borasida Xitoy tajribasini o'rganish Tojikiston milliy iqtisodiyoti rivojlanishiga sezilarli turtki bo'ladi.

Xitoy hozirda Afg'onistondagi bir qator siyosiy hamda harbiy tahdidlar tufayli ham Markaziy Osiyoga nisbatan kam investitsiya kiritayotgani ma'lum. Lekin hozirda ko'plab Xitoy TMKlari aynan Markaziy Osiyo hududi bozorlarini ekspansiya qilishni boshlab yuborishgan. Buning asosiy sababi ishlab chiqarish to'xtab turmaydi hamda Xitoy mahsulotlari uchun eng arzon transit yo'l va ko'plab haridorlar aynan shu hududda joylashganligini ham inobatga olishimiz darkor.

Turkmaniston Respublikasi. 1992-yil yanvar oyida Xitoy va Turkmaniston diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida rasmiy hujjatlar imzoladilar. Shunday so'ng ikki davlat o'rtasida oliy darajada o'zaro tashriflar faollashidi, siyosiy o'zaro ishonch mustahkamlanib bordi. 2007 yil iyul oyida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan Xitoyga keldi. Shu yilning noyabr oyida XXR Davlat kengashi premiyeri Ven Jiaobao Turkmanistonga rasmiy tashrif buyurdi.

Xitoy Turkmaniston olib borayotgan "mangu neytralitet" siyosatini doimo hurmat qiladi. Turkmaniston esa Xitoy siyosatiga qat'iy rioya qilmoqda. Bundan tashqari, tomonlar xalqaro va mintaqaviy ishlarda kelishilgan holda ish tutgan holda, xalqaro maydonda manfaatli hamkorlikni amalga oshirmoqdalar.


Shu bilan birga, teng huquqlilik, o'zaro manfaat va ikki tomon uchun yutuqqa asoslangan xitoy-turkman savdo-iqtisodiy hamkorligi jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xitoy bojxonasi ma'lumotlariga ko'ra 1992 yilda xitoy-turkman savdo aylanmasi atigi 4,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan, 2007 yilda esa xitoy-turkman savdosi hajmi 353 mln. AQSH dollariga yetdi. 2008 yilning birinchi 10 oyi davomida ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 630 mln, AQSH dollarigacha ko'tarildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 162,7 foiz ko'p²⁹.

Xitoy va Turkmaniston iqtisodiyotiari bir-birini to'ldirishga qodir va ulkan salohiyatga ega. Xitoy-turkman gaz quvuri qurilishiga asos solinishi bilan savdo va iqtisodiyot, energetika, moliya va telekommunikatsiya sohasidagi pragmatik hamkorlik ham har tomonlama rivojlanishni boshladi. Bundan tashqari, tomonlar transport, kimyo sanoati, to'qimachilik sohasi va qurilish materiallari sanoatida hamkorlikni faollashtirishga tayyorlar. Terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurashishda hamkorlik to'g'risidagi Kelishuvga rioya qilgan holda Xitoy va Turkmaniston xavfsizlik borasidagi hamkorlikni ham chuqurlashtirmoqdalar.

²⁹ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

2.2.3-diagramma³⁰.

Turkmaniston Respublikasi YaIMsining yillik o'sish hajmi (2004-2014-yy.)



Shu bilan birga, xitoy-turkman ijtimoiy aloqalari doimo rivojlanib bormoqda. Tomonlar madaniyat, san'at, sport, maorif, OAV, sog'liqni saqlash va turizm sohasida faol aloqada bo'lish bilan bir qatorda, tillarni o'qitish va talabalar almashish borasida ham hamkorlikni faollashtirishga harakat qilmoqdalar.

Bundan tashqari Xitoy hamda Turkmaniston o'rtasida energetika sohasidagi hamkorliklar ham tezlik bilan rivojlanmoqda. "Xitoy-Turkmaniston" gaz magistral Uzunligi 1800 kilometr bo'lgan "Malay-Bagtiyarlik" gaz quvuri buyurtmachisi "Turkmangaz" Davlat konserni bir yo'la uchta bo'lakda ish olib bormoqda - Amudaryoning o'ng sohili, chap sohili va daryodan kesib o'tish joyida. Gazni faqat o'z chegarasida sotish to'g'risida turkman tomoni qo'ygan shart inobatga olinadigan bo'lsa, mazkur trassaning oxirgi nuqtasi qo'shni O'zbekiston bilan tutash hududda bo'ladi.

2006 yil aprel oyida imzolangan "Malay-Bagtiyarlik" gaz quvuri qurilishini amalga oshirish va gaz sotish to'g'risidagi hukumatlararo Bosh kelishuvga muvofiq Turkmaniston Xitoyga 30 yil davomida har yili 30 mlrd. kubometr gaz yetkazib berish majburiyatini olgan. Mustaqil ekspertlar tomonidan uglevodorod

³⁰ Manba: www.tradeeconomics.com / national institute of state statistics and information Turkmenistan

resurslarining ulkan zaxiralari mavjudligi tasdiqlangan so'ng, kelajakda bu raqam 40 mlrd. kubometrغا yetkazilishi mumkin. Shuningdek, Turkmaniston neft-gaz sanoati va mineral resurslar vazirligi hamda Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolangan.

Zamonamizdagi "Buyuk davlat" deb nomlanadigan davlatlar ichida faqat Xitoy to'liq ishonch bilan shunday atalishga haqli bo'lsa kerak. Bugungi kunda faqat unda buyuk davlat bo'lishning barcha alomatlari mujassam - ulkan hudud, dunyoda eng ko'p aholi, global ko'lamli harbiy salohiyat va eng asosiysi - jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot. Aynan jadal rivojlanayotgan iqtisod bugungi kunda XXR tashqi siyosatini belgiiamoqda. Bu siyosatning mohiyati - pragmatizm, hamkorlik, tinchiik va birgalikda xavfsiz hayot kechirish va bir vaqtning o'zida o'z manfaatlarini ilg'or surish hamda iqtisodiy ekspansiyani amalga oshirishdan iborat. Shu ma'noda, Markaziy Osiyoning avval Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan besh davlati bilan munosabatlar Xitoy uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Birinchidan, iqtisodiy jihatdan ushbu mamlakatlarning iqtisodiy tuzilmasi kam rivojlangan bo'lib, agrar xom-ashyo sektori ustunlik qiladi. Bu - mintaqaga xitoy tovarlari va investitsiyalarini kiritish uchun qulay muhit. Ikkinchidan, Xitoy Markaziy Osiyodagi bugungi siyosiy rejimlarning siyosiy barqarorligidan manfaatdor, chunki ularning fe'li va siyosiy islomchilikka qat'iy munosabati XXR uchun aksariyat mamlakatning g'arbiy provinsiyalarida xavotir o'chog'i bo'layotgan uyg'ur milliy-radikal ekstremizmiga birgalikda qarshi turishda Pekin uchun juda muhim.

Bugun Xitoy savdo va investitsiyalari hajmining asosiy qismi Qozog'iston ulushiga, avvalo, uning neft va gaz sanoatiga to'g'ri keladi. XXR bilan chegaradosh Qirg'iziston bilan savdo faol rivojlanmoqda. O'zbekistonga kelganda, vaziyat birmuncha murakkab, bu yerda investitsiya uchun sharoit ancha qat'iy va Xitoydan oldin kelgan Janubiy Koreya korporatsiyalari mustahkam joylashib olgan. Tojikistonning kelajagi to'g'risida so'z yuritishga hali vaqtli, chunki ushbu mamlakatning iqtisodiy muhitida siyosiy va geosiyosiy beqarorlik omillari muhim

o'rin egallab turibdi. Turkmaniston - bu alohida jihat, shuning uchun bu masalaga xitoy hukumati doimiy neytrallik siyosati ostida munosabat bildiradi.

Bugungi kunda Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti tarkibida mashina va asbob-uskunalar (70%), oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari (30%) ustunlik qiladi. Mintaqadan XXRga esa, asosan, xom ashyo va energoresurslar eksport qilinadi. Mazkur jihatdan XXR bozorining kelajagi porloq. Bugun XXR energiya quvvatlari iste'moli bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keyin dunyoda uchinchi o'rinda turadi, biroq, ekspertlarning bashoratlariga ko'ra 2020 yilga kelib, Xitoy Yaponiyadan o'zib ketadi. Mazkur mamlakatning jadal rivojlanib kelayotgan iqtisodiyotiga har yili 400 mln. tonnagacha neft kerak bo'ladi, mamlakatning o'zida esa taxminan 170-180 mln. tonna neft qazib olinadi³¹. So'nggi vaqtlarda Xitoy o'z manfaatlarini ko'zlamoqda, uning iqtisodiy ekspansiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlari sanoatining busiz ham kam rivojlangan ko'plab sohalarini bo'g'ib qo'yadi, degan fikr tez-tez bildirilmoqda. Bir tomondan, bu to'g'ri fikr: Xitoy, dunyodagi har qanday boshqa mamlakat singari, o'z manfaatlarini ko'zlaydi, lekin tashqi siyosat diplomatiyasining vazifasi aynan ushbu manfaatlar o'rtasida muvozanatni qidirib topish va unga erishishdan iborat.

XXR o'z oldiga yangi texnika va texnologiyalar yordamida alternative energiya resurslaridan keng foydalanish va atom energetikasi evaziga energiya iste'moli tarkibini o'zgartirishni maqsad qilib qo'ygan. 2020-yilga kelib, energetikaga bo'lgan ehtiyojining barqarorligini 14-15% atrofida ushlab turish ko'zda tutilmoqda. Xitoyning hozirgi kundagi ulushi 12 %ni tashkil etadi³².

Hozirgi kunda XXR ananaviy energetik resurslardan foydalanishni ma'lum miqdorda cheklash va bir xillikdan voz kechish siyosatini olib bormoqda. XXR yaqin kelajakda alternative energiya resurslaridan keng qamrovda foydalanishni va kam harajatli energiya resurslarni yaratish ustida muayyan ishlarni olib bormoqda.


³¹ Melibayeva G.A., Gazyev F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

³² Nigmanov A.U. "XXR va O'zbekiston respublikasining energetika sohasidagi aloqalarining rivojlanish xususiyatlari"/"Ilm-fan va barkamol avlod". "XMI va mamlakatshunoslik" fakulteti bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent 2010-yil. 109-bet

2.3. Xitoyning O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston respublikasi Xitoy Xalq Respublikasi bilan 1992-yil diplomatik munosabatlar o'rnatgan birinchi Markaziy Osiyo davlati bo'ldi. 2002-yilga qadar xitoy-o'zbek iqtisodiy aloqalari, asosan, savdo sohasi bilan cheklanib kelgan. Rasmiy savdo hajmi esa umuman kam bo'lgan. 1992-2002-yillar mobaynida Xitoydan yetkazilgan mahsulotlar hajmi bir yilda 114 mln. dollardan oshmagan, Tovar aylanmasining o'zi esa bir yilda 136 mln. AQSH dollarini tashkil etgan (O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining 2 foizidan biroz ko'p).

2.3.1-diagramma³³.



Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Xitoyning MDHdagi savdo hamkorlari orasida O'zbekistonning 3-o'rinni egallashi bejiz ems albatta. Bu ko'rsatkich so'nggi yillarda faqat o'sish hususiyatiga ega bo'lib bormoqda. Hozirda O'zbekiston Xitoyga paxta, oltin, uran rudasi, mineral o'g'itlar, rangli

³³ Rasulova D. "Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi savdo rivojlanish hususiyatlari"/"Yoshlar va ilm-fan". XMI va Mamlakatshunoslik fakulteti, mustaqil tadqiqotchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy amaliy konferensiyasi. 25-may 2012-yil. Maqola. 133-bet

metallar, tekstil, oziq-ovqat mahsulotlari, energiya tashuvchilar hamda neft mahsulotlarini eksport qiladilar. Xitoydan esa mashina va uskunalar, avtomobil ehtiyot qismlari, qora metallar va plastiklarni import qilishadi.

2003-yilda siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnik va madaniy –ijtimoiy rivojlantirish to'g'risida qator hujjatlar imzolanganidan keyin Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi ishtiroki har jihatdan o'sishni boshladi.

Shu jihatdan 2004-yilda O'zbekistonga XXR Prezidenti Xu Szintaoning rasmiy tashrifi, keyin 2005-yilda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning XXRga tashrifi va, albatta, 2010-yil iyun oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan, ikki mamlakat Prezidenti ishtirok etgan va so'zga chiqqan SHHTsammiti muhim hodisa bo'ldi.

2005- yilda Xitoy O'zbekiston bilan jami 1,5 mlrd. AQSH dollarlik cbir yo'la 20ta investitsiya kelishuvlari kredit shartnomalari va kontraktlariga, shu jumladan, neft gaz sohasida 600 mln. AQSH dollarlik shartnomalarga imzo chekildi. Shu yilning o'zida Toshkent shahrida Xitoy Bosh vaziri ishtirokida birinchi o'zbek-xitoy biznes anjumani o'tkazilib, unda jami 473 mln. AQSH dollarlik 8 ta shartnoma imzolandi.

2007- yilda O'zbekistonning Xitoyga eksporti quydagilarni o'z ichga olgan: xizmat ko'rsatish (taxminan 12foiz), rangli metallar (qariyb 19 foiz), paxta tolasi (taxminan 12 foiz), kimyoviy xom ashyo (taxminan 9 foiz), mashina va asbob-uskunalar (qariyb 8 foiz). O'z navbatida, Xitoydan yetkazib berilgan tovarlar asosan, mashinasozlik mahsulotlari (taxminan 54 foiz), xizmatlar (taxminan 18 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari (taxminan 10foiz), kimyo mahsulotlaridan (qariyb 9 foiz) iborat bo'lgan³⁴.

³⁴ Melibayeva G.A., Gazyev F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

Boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan bo'lgani kabi xitoy-o'zbek Tovar aylanmasidan ma'lum darajada norasmiy savdogarchilik ham o'rin olgan bo'lib, u rasmiy statistika ma'lumotlarida aks ettirilmaydi. Xitoy statistika ma'lumotlari aynan shundan dalolat beradi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, 2003-2008-yillar davomida XXR va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi haqiqiy tovar aylanmasi o'rta hisobda 28 foizga ko'p bo'lgan.

Xitoyda amalga oshirilayotgan eksportni kreditlash dasturi samarasi o'laroq, O'zbekistonda Xitoyning savdo ishlari ko'lami keskin kengaydi. Dastur doirasida Xitoy hukumati Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun maqsadli kredit ajratilgan. Mazkur dastur, asosan, 2005-yilda XXR Eksport-import banki (EKSIM Bank) va O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki (TIF MB) o'rtasida kelishuvga muvofiq amalga oshirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ko'plab sohalarini qamrab olgan: neft-gaz, elektr energetikasi, kimyo, transport va qishloq xo'jaligi sohalarini. Garchi, bu loyhalar ma'lum darajada shartli ravishda, "Xitoy loyhasi" deb atalsa-da, O'zbekiston bu loyhalarni mustaqil ravishda, faqat Xitoy mablag'laridan foydalangan holda amalga oshirmoqda, shunga qaramay, ular respublika uchun juda muhim va, umuman olganda, hozirgi kunda XXR ning O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy ishtiroki xususiyatini aks ettiradi.

2008-yil boshlariga kelib O'zbekistonda 107 ta o'zbek-xitoy qo'shma korxonasi faoliyat yuritardi. O'zbekiston Respublikasidagi Xitoy moliyaviy resurslarining umumiy hajmi 2008-yil oxiriga kelib taxminan 362,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

2013-yilda esa bu qo'shma korxonalar soni 266 taga yetib, shundan 222 tasi qo'shma korxona, 44 tasi sof xitoy mablag'lari asosidagi korxona hamda yana 44 ta korxona akkredetatsiyadan o'tkazilgan³⁵.

Neft-gaz sohasi. O'zbekiston bilan neft-gaz sohasida hamkorlik 2004-yildan boshlangan. Shu yili Xitoy Milliy neft-gaz holding kompaniyasi (XMNK) va

³⁵ Maxmudov E.A. "O'rganilayotgan mintaq mamlakatlarida AKT sohasi" o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2013 y

“O‘zbekneftgaz” Milliy holding kompaniyasi hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida kelishuvlarni imzoladilar. XMNK O‘zbekistonning neft-gaz sohasida quyidagi ishlarni amalga oshirib kelmoqda:

1. Farg‘ona vodiysida neft konlari o‘zlashtirilmoqda;
2. Buxoro-Xiva mintaqasi va Ustyurt yassi tog‘liklarida neftgazkondensat konlari o‘zlashtirilmoqda;
3. Orol dengizining O‘zbekistonga qarashli qismida neft-gaz konlarini o‘zlashtirish ishlari rejalashtirilmoqda;
4. “Markaziy Osiyo-Xitoy” gaz quvirining O‘zbekiston bo‘lagi qurilishi;
5. Muborak gazni qayta ishlash zavodida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish uskunasini qurilishini moliyalashtirmoqda;
6. O‘zbekiston hududida neft-gaz asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalar tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Farg‘ona neft-gaz mintaqasida pastdebetli konlarni qazishda Xitoy kompaniyasi tajribasidan foydalanishni rejalashtirgan. O‘zbekistonda bir sutkada bir-ikki tonna xom neft debetiga ega 500 dan ziyod kichik konlar mavjud.

"Mingbuloqneft" qo'shma korxonasi neft-gaz sohasidagi birinchi o'zbek-xitoy qo'shma korxonasi emas. 2006 yilda MXK va CNPC hamkorlikda O'zbekiston hududida geologik qidiruv ishlari olib borish va neft konlarini qazish bo'yicha «Uz CNPC Petroleum» qo'shma korxonasini ta'sis etganlar. Mazkur qo'shma korxona Buxoro-Xiva mintaqasida va Ustyurt yassi tog'liklarida qazib chiqarish qiyin quyuq uglevodorod zaxiralariga ega konlarni topish, asbob-uskunalar o'rnatish va foydalanishga tushirish bilan shug'ullanadi. O'zbek-xitoy qo'shma korxonasiga Buxoro-Xiva mintaqasida va Ustyurt yassi tog'liklarida joylashgan jami 23 ta kon beriladi. Qo'shma korxona, to'liq loyiha kuchga kirgandan so'ng, bir yilda taxminan 1 mln. tonna neft va gaz kondensati qazib chiqarishi kutilmoqda. Qo'shma korxona tomonlar tengligi asosida tashkil etilgan va nizomi jamg'armasi qariyb 96 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Xitoy kompaniyasi 25 yil davomida loyihaga 600 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishi kutilmoqda.

2008 yil aprel oyida "O'zbekneftgaz" MXK va CNPC O'zbekiston hududi orqali turkman gazi tranzitini ta'minlash maqsadida quvvati 30 mlrd. kubometr va uzunligi 530 km bo'lgan "O'zbekiston-Xitoy" gaz quvurini loyihalashtirish, qurish va foydalanishga topshirish uchun «Asia Trans Gas» MCHJ QKnI tashkil etdilar. Gaz quvurining birinchi navbatini ishga tushirish 2010 yilga mo'ljallangan. Bundan tashqari, CNPC Silk Road (SNODC neft va gaz qidirish va qazish bo'yicha Xitoy Milliy korporatsiyasining yuz foiz Xitoy kapitalida ishlaydigan sho'ba korxonasi) 2007 yilda 2006-2010 yillarda beshta investitsiya bloklarida geologik qidiruv ishlarini amalga oshirish to'g'risida "O'zbekneftgaz" MXK va CNODC o'rtasida 2006 yilda imzolangan Kelishuvni amalga oshirishni boshladilar. Geologik qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun besh yil davomidagi investitsiyalar umumiy hajmi 208,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi, shundan 88,3 mln. AQSH dollari minimal dastur doirasida o'zlashtiriladi.

Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi muhim hamkori O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi. Uning iqtisodiy barqarorligi, tashqi qarzining uncha katta emasligi, valyuta zaxirasining yetarliligi bilan Xitoyni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi oldida o'z energetika sanoatini rivojlantirish masalasini hal etishda Xitoy tajribasini o'rganish muhimdir va u quyidagilarni o'z ichiga qamrab olishi kerak³⁶:

- Xitoyning energetika sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni va uning tarkibiy o'zgarishlarini izchillik bilan o'rganish;
- Xitoy energetik strategiyasini, hususan, uning O'zbekiston bilan bo'lgan munosabatlarini tahlil qilish asosida, o'z energetik strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish;
- Xitoy bilan transport-kommunikatsiyasini rivojlantirish masalalarini hal qilish, hususan, uglevodorodlarni transportirovka qilishda temir va avtomobil yo'llarini birgalikda qurish ishlarini amalga oshirish.

³⁶Nigmanov A.U. "XXR va O'zbekiston respublikasining energetika sohasidagi aloqalarining rivojlanish hususiyatlari"/"Ilm-fan va barkamol avlod". "XMI va mamlakatshunoslik" fakulteti bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent 2010-yil. 109-bet

Hozirda bu yo'nalishlarda bir qator ishlar amalga oshirilib, qolganlari ustida ikki davlat mutaxassislari faoliyat yuritmoqdalar.

Xitoy bilan O'zbekiston o'rtasidagi eng katta 10 ta yirik qo'shma korxonalar³⁷:

1. "Elektron hisoblagich" 2004-yilda (O'zbek energo bilan);
2. "UzCnpetroleum" 2005-yilda;
3. "Mingbulokneft" 2008-yilda;
4. "AziaTransGaz" 2008-yilda;
5. "Timuchin" 2008-yilda (Qashqadaryoda sutkasiga 3800ta shifer ishlab chiqaradi);
6. "Farbayteksnoteks" 2008-yilda (pilla qayta ishlash);
7. "Pengsheng" 2008-yilda (Sirdaryoda keramika ishlab chiqarish bo'yicha);
8. "Aslqog'oz" 2009-yilda (Sirdaryoda qog'oz ishlab chiqarish)
9. "Energozashita silver star" 2010-yilda (electron jihozlarni ishlab chiqaradi);
10. "Kristalfuinindustries" 2010-yilda (qurilish materiallari ishlab chiqaradi).

O'zbekistonning telekommunikatsiya sohasi borgan sari Xitoy kompaniyalari diqqat markazidan o'rin olmoqda. Hozirda O'zbekiston bozorida Xitoyning ZTE, Huawei Technologies Co. Ltd. va Alcatel Shanghai Bell kompaniyalari faoliyat olib borayotgan bo'lib, O'zbekistonda qator loyihalarni amalga oshirmoqdalar.

Alcatel Shanghai Bell va "Asia Trans Gas" QK O'zbekistondan Xitoyga gaz haydash quvuriga xizmat ko'rsatish uchun telekommunikatsiya infratuzilmasi qurilishi bo'yicha shartnoma imzoladilar. Shartnomaning jami qiymati 26 mln. AQSH dollariga teng. 2010 yilda tugallangan ushbu loyiha doirasida gaz quvuri bo'ylab videokonferensiya, monitoring, nazorat, favqulodda hodisalarni oldini olish va bartaraf qilish tizimlari o'rnatildi.

³⁷ Maxmudov E.A. "O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida AKT sohasi" o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2013 y

O'zbekiston-Xitoy gaz quvuri qurilishi loyihasi "Markaziy Osiyo-Xitoy" loyihasining bir qismi bo'lib, O'zbekiston va Turkmaniston chegaralarida boshlanadi va O'zbekiston hamda Qozog'iston chegarasida tugaydi. Tenderga muvofiq, Alcatel Shanghai Bell kompaniyasi pudratchi sifatida butun loyiha uchun barcha SCADA va telekommunikatsiya tizimlarini, shu jumladan, TOAT tizimi (optik tolaii aloqa tarmog'i), ovozli axborot uzatish tizimi, VSAT tizimi (yer usti qabul stansiyasi), videokonferensiya aloqasi, kabelli televideniye, ruxsatsiz ulanish hollarini aniqlash tizimi, ma'lumotlar uzatish lokal tarmog'i, radioaloqa uchun uskunalar, yo'ldoshli telefon uskunolari, yo'ldoshli televideniye va boshqa kommunikatsiya tizimlarini loyihalashtirish, ularning ishlashi va integratsiyalashuvi uchun hamda SCADA tizimli stansiyalarni nazorat qilish tizimi integratsiyasi uchun yakka tartibda mas'ul.

O'zbekiston hukumati tomonidan Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq belgilab olgan mamlakat iqtisodiyotini barqaror va jadal o'stirish sari tanlangan yo'l, boshidanoq ustuvor yo'nalishlar bilan bir qatorda, xorijiy investitsiyalarini jalb qilishga yo'naltirilgan izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotidagi salbiy tendensiyalarni yengdi, bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yasadi. Buning uchun ishonchli huquqiy asos ham yaratildi va bu asos doimo takomillashtirilib borildi. Yil sayin juda muhim bo'lgan davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayoni sur'atlari jadallashtirildi, iqtisodiyotning barcha sohalarida chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Qisqa vaqt ichida mamlakatimiz energetika va don mustaqilligiga erishdi, yangi sohalar yaratildi, masalan: avtomobilsozlik. Respublikaning boy iqtisodiy salohiyatini namoyish etuvchi ushbu va boshqa omillar samarasi o'laroq xorijiy sarmoyadorlar O'zbekistonga borgan sari katta qiziqish bildirib boshladilar.

Yuqorida bayon qilinganlarni inobatga olgan holda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy (Xitoy) investitsiyalari oqib kelishining quyidagi asosiy omillarini qayd etish mumkin:

- mamlakatdagi siyosiy barqarorlik;

- qulay investitsiya muhiti;
- iqtisodiy barqarorlik;
- qulay geografik joylashuv.

Geografik jihatdan qulay joylashgan O'zbekistonda yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi mavjud bo'lib, u eng uzoq mintaqalarga, asosiy xom ashyo resurslariga yetib borishni ta'minlaydi hamda xalqaro avtomobil, temir yo'l va havo transport tizimlari bilan tutashgan. Bu esa mahsulotlarni yaqin va uzoq xorijiy bozorlariga yetkazishni yengillashtiradi.

Mamlakat issiqlik energetika kompleksi (IEK) boshqa mamlakatlarga nisbatan past narxlardaligi va aholining issiqlik hamda elektr quvvatiga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirishi xorijiy sarmoyadorlar uchun muhim omillardan biridir.

O'zbekistonda yuqori malakali va qimmat bo'lmagan ishchi kuchi, yuqori darajali mutaxassislar, tashabbuskor va ishbilarmon tadbirkorlar mavjudligi ham katta ahamiyatga ega. Ba'zi xorijiy sarmoyadorlarining fikricha, bu ham ular o'z bizneslarini biron boshqa mamlakatda emas, aynan O'zbekistonda olib borishga qaror qilishlariga ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida mamlakat rahbariyati tomonidan xorijiy investitsiyalarini O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish borasida izchillik bilan olib borilayotgan siyosat o'zini toliq oqlamoqda va tegishli natijalar bermoqda.

2009 yil iyun oyi oxirida Buxoro viloyatida "O'zbekiston-Xitoy" gaz quvuri qurilishi boshlandi. Jami qiymati 2 mlrd. AQSH dollaridan oshadigan mazkur loyihaga muvofiq uzunligi 500 km bo'lgan ikkita tarmoq qurilishi nazarda tutilgan bo'lib, birinchisi 2009 yil dekabr oyida foydalanishga topshirildi, ikkinchisi esa 2011 yilda topshirilishi kerak. Bu O'zbekiston va Xitoy o'rtasida izchil rivojlanayotgan iqtisodiy va investitsion barqarorlikka yana bir yorqin misol.

Transport sohasi. O'zbekiston Xitoy bilan chegaradosh emas, ikki mamlakat o'rtasida transport aloqasi Qozog'iston va Qirg'iziston hududlari orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun transport kommunikatsiyalarni rivojlantirish borasida

O'zbekiston Respublikasi Xitoyni faqat Transosiyo xalqaro yo'nalishlari tizimidagi tranzit mamlakat jihatidan qiziqtiradi. Demak, Xitoyning O'zbekiston transport sohasidagi loyiha faoliyati shu maqsadga xizmat qiladi:

1) "O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy" temir yo'lining O'zbekiston bo'lagi qurilishi bo'yicha rejalar;

2) "O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy" avtomobil yo'lining O'zbekiston bo'lagi qurilishi bo'yicha rejalar.

Biroq, Yevroosiyo va Transosiyo xalqaro yo'nalishlari rivojlanishi kelajagi haligacha aniq emas. Birinchi navbatda, bu Markaziy Osiyoda yagona transport-logistika va bojxona makoni yo'qligi bilan bog'liq hamda bunday makon yaratish harakatlari ham kuzatilmayapti. Bu esa, o'z navbatida, transport xarajatlari oshishiga olib keladi. Hozirda, O'zbekiston Xitoy portlariga mol yetkazib berish imkoniyatlari (9-yo'lak - Qirg'iziston orqali Sariq, Sharqiy-Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish orqali) ustida ishlamoqda. O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy yo'lagi 1997 yil aprel oyida ushbu yo'nalishda temir yo'l qurilishi imkoniyatini o'rganish bo'yicha O'zbekiston, Qirg'iziston va Xitoy o'rtasida uch tomonlama hukumatlararo kelishuv imzolangan paytdan beri loyiha bosqichiga kirgan.

Loyiha amalga oshirilgandan so'ng yo'lakning o'tkazish qobiliyati, ichki yuk tashishlarni hisobga olmagan holda, 12-14 mln, tonnaga yetishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Shanxaydan Lissabongacha quruqlik yo'lidan uzluksiz harakatlanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston quyidagi eksport-import yuk tashish yo'llaridan foydalanadi³⁸:

- 1-yo'lak - Boltiq bo'yi davlatlari portlari - Klaypeda, Riga, Liyepaya, Ventspils, Tallin tomon (Qozog'iston va Rossiya orqali);
- 2- yo'lak - Belarus va Ukraina orqali (Qozog'iston va Rossiya orqali tranzit

³⁸ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

bilan) - Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegaradan o'tish joylari, u yerdan Yevropaga;

- 3-yo'lak - Ilyichevsk ukrain posti (Qozog'iston va Rossiya orqali tranzit bilan) orqali Qora dengizga chiqish;

- 4-yo'lak - sharqiy yo'nalishda Qozog'iston-Xitoy chegarasi orqali Xitoyning sharqiy portlariga, shuningdek, Rossiyaning Uzoq Sharqdagi Naxodka, Vladivostok va boshqa portlariga chiqish;

- 5-yo'lak - Transkavkaz yo'lagi tomon (Turkmaniston va Ozarbayjon orqali tranzit bilan), Qora dengizga chiqish (TRASEKA);

- 6-yo'lak- Transkavkaz yo'lagi tomon (Qozog'iston va Ozarbayjon orqali tranzit bilan), Qora dengizga chiqish;

- 7-yo'lak - Eronning Bandar-Abbos porti tomon (Turkmaniston orqali tranzit bilan) Fors ko'rfaziga chiqish;

- 8-yo'lak - Eronning Bandar-Abbos porti tomon (Qozog'iston orqali tranzit bilan) Fors ko'rfaziga chiqish.

Bundan tashqari, 9-yo'lak ustida muzokaralar olib borilmoqda (Afg'oniston orqali Eronning Bandar-Abbos va Choxbahor portlariga chiqish).

Diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan beri Xitoy va O'zbekiston ikki davlatning asosiy manfaatlariga taalluqli masalalarda bir-birlarini qo'liab-quvvatlamodalar hamda xalqaro ishlarda o'zaro kelishgan holda qaror qabul qilmoqdalar. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: "O'zbekiston Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Shartnomani hayotga astoydil tatbiq qilish maqsadidan chekinmaydi, chunki "O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini mustahkamlash o'ta muhim ahamiyatga ega".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va XXR raisi Xi Jin Pin 2014-yil 20-may kuni Xitoy rahbarining Shanhay shahridagi qarorgohida uchrashuv o'tkazdi. Suhbat davomida mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning

bugungi holatini yuksak baholadi va hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollarini belgilashda bunday uchrashuvlar muhimligini ta'kidladilar.

XXR raisi Xi Jin Pining 2013-yilning sentabr oyida O'zbekistonga ilk davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda tarixiy voqea, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning tobora mustahkamlanib borayotgan asoslarining amaliy ifodasi ekanligi ta'kidlandi.

O'zaro savdo aylanmasi hajmining barqaror o'sib borayotgani ham qiqqatga sazovordir. Masalan, so'nggi 6 yildagi mamlakatlarimiz o'rtasidagi Tovar ayrboshlash hajmi qariyb 6 barobarga oshdi va 2013-yilda 5.2 milliard dollarga yetdi³⁹. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil iyun oyida Xitoyga tashrifi chog'ida 30 dan ortiq investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan 5.3 mlrd dollardan ziyodroq miqdordagi hujjatlar imzolangan. XXR raisi 2013-yil sentabr oyidagi O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida umumiy qiymati 15 mlrd dollarga teng loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan 31 ta hujjat imzolandi. Ushbu hujjatlarda 7.7 mlre dollarlik moliyaviy resurslar, shu jumladan, Xitoy kompaniyalarining 1.3 mlrd dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari, ushbu mamlakat banklarining 6.1 mlrd dollarga teng bo'lgan kredit mablag'lari va 0.3 mlrd dollarlik davlat grantlari jalb etish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda xirij kapitali ishtirokidagi 466 ta korxona, jumladan, to'la Xitoy sarmoyasi bilan tashkil etilgan 77 korxona faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda Xitoyning 71 kompaniyasi o'z vakolatxonasini ochgan.

O'zbekiston XXR rahbariyati tomonidan 2011-yilda ilgari surilgan Xitoy kompaniyalari ishtirokida O'zbekiston-Xitoy yuqori texnologiyalar sanoat parkini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusni qo'llab-quvvatladi. Ushbu maqsadda 2013-yilning mart oyida Sirdaryo viloyatida filliali bo'lgan "Jizzax" maxsus industrial zonasi tashkil etildi. 2013-yil iyun oyidan boshlab ushbu industrial zona hududida mobil telefonlar, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

³⁹ Uza.uz

Joriy yilda “Jizzax” maxsus industrial zonasida Xitoy kompaniyalarining qiymati 50 mln dollardan ziyod ziyod to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalari ishtirokida 15 dan ortiq qo’shma loyihani amalga oshirish ko’zda tutilgan.

Yonilg’i energetika kompleksida ham Xitoy bilan hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurining 4 ta tarmog’i ham O’zbekiston Respublikasi hududidan o’tishi neft-gaz sohasida yuksak darajadagi o’zaro ishonch va yaqin hamkorlikdan dalolat beradi.

Mamlakatlarimiz o’rtasida eng qisqa temir yo’l tarmog’ini barpo etish o’zaro iqtisodiy hamkorlikning dolzarb strategik yo’nalishlaridandir. Bu Xitoyning Markaziy Osiyo, Undan keyin Janubiy Osiyo mamlakatlariga chiqishini ta’minlaydi. Mazkur yo’nalish Angren-Pop temir yo’li qurilishi loyihasini o’z ichiga olgan. “O’zbekiston temir yo’llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasi va Xitoyning «China Railway Tunnel Group» kompaniyasi o’rtasida dovondan tunnel orqali o’tadigan Angren-Pop temir yo’lini qurish bo’yicha umumiy qiymati 455 million Aqsh dollarilik shartnoma imzolandi va xitoylik hamkorlar ishtirokida 2013-yilning iyun oyida mazkur yo’l qurilishi boshlandi⁴⁰.

Moliyaviy sohadagi hamkorlik, jumladan, Xitoy Davlat taraqqiyot banki va EKSIMbanki bilan aloqalar faol rivojlanmoqda. Xitoy moliya institutlarining jami kreditlari hajmi 4.5 milliard Aqsh dollaridan, shu jumladan, hukumat kafolatisiz kreditlar 3.5 milliard Aqsh dollaridan oshdi⁴¹.

Ta’kidlash joizki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki energetika, transport, telekommunikatsiya, sog’liqni saqlash, ta’lim va boshqa yo’nalishlardagi umumiy qiymati 3.8 milliard Aqsh dollaridan ziyod turli loyihalarda ishtirok etmoqda. Xitoy EKSIMbanki tomonidan 2005-yildan boshlab umumiy qiymati 1.15 milliard dollarlik 32 ta loyihani moliyalashtirish tasdiqlangan⁴².

⁴⁰UzA.uz xabari

⁴¹UzA.uz xabari

⁴²UzA.uz xabari

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xitoy uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari hozirda muhim savdo hamkori darajasiga aylanib ulgurishgan. Nafaqat o'z mahsulotlarini sotish uchun bozor, balki energetika resurslari bo'yicha ham muhim savdo hamkori desa ham bo'ladi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo nafaqat xalqaro munosabatlar tizimida, balki dunyo xo'jaligida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Yirik davlatlarning unga e'tibori ortishi ko'p jihatdan iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Bular: bepoyon hudud, turli xil tabiiy boyliklar, moddiy ishlab chiqarishning qator muhimsohalari rivojlanganligi, Yevropa va Uzoq sharq, Shimoliy bva Janubiy Osiyo o'rtasida tovarlar va xizmatlar tranziti yo'lida qulay joylashganligi.

Hozirda Markaziy Osiyo jahon hamjamiyati, dunyoning obro'li davlatlari diqqati unga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyo – qadimda hududi orqali “Buyuk ipak yo'li” o'tgan, sharq va g'arb o'rtasidako'prik bo'lgan, turli xalqlar va madaniyatlar tutashgan mintaqadir. Mintaqaning bunday tarixiy-ananaviy roli hozirgi kunda yana ham ortmoqda. Mintaqa orqali fors ko'rfazi davlatlarini janubi-sharqiy osiyo mamlakatlari bilan va ular orqali sharqni g'arb bilan bog'laydigan yangi kommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish ishlari boshlandi.

Mintaqaning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi faollashdi, dunyoning 192 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy aloqalar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdosining qariyb 60 foizi Yevropa hamjamiyati (27 foiz), Rossiya (18 foiz), Xitoyga (13 foiz) to'g'ri keladi. Binobarin, Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasi o'sishi sur'ati Yevropa hamjamiyatidan ham, Rossiyadan ham yuqori.

Hozirda mintaqaning eng talab kuchli tovarlari bu neft, gaz, ko'mir, metallar va kon sanoatining boshqa resurslari hamda agrar sektor mahsulotlari – bug'doy, un, paxta, charm, sabzavotlar bo'lib, ular mintaqada barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdo siyosatining o'ziga hos hususiyati shundan iboratki, unda avvalo ananaviy mahsulotlar eksportini oshirishga va undan tushgan valyuta tushumlarini ishlab chiqarishning boshqa sohalariga sarflashga va shu orqali iqtisodiyotning bir tomonlama, hom ashyoga asoslanganligiga barham berishga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirgi vaqtda Qozog'istonning rivojlanishi klassik iqtisodiy yo'nalish bo'yicha ketmoqda. Chunki nisbiy iqtisodiy ustunliklar mavjud foydali qazilmalar zaxiralari bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish va xom ashyo resurslari eksporti jadal sur'atlar bilan o'sishi samarasi o'laroq, milliy iqtisodiyot ham yuqori sur'atlarda o'sib bordi.

Qozog'iston iqtisodiyoti rivojlanishi shundan iboratki, sanoatning xom ashyo sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va moliya sohasida tashkiliy-institutsional islohotlar amalga oshirilishi natijasida mamlakatda hayot darajasi ko'tarilib, moliyaviy resurslar to'plangan holda uzoq kelajakda postindustrial xizmat ko'rsatishning texnologik rivojlanish bosqichiga o'tish ta'minlanmoqda. Qabul qilingan rivojlanish modeliga muvofiq strategik jihatdan Qozog'iston iqtisodiyoti ochiq, tovar, xizmat ko'rsatish, kapital va ishchi kuchi eksportiga yo'naltirilgan, dunyoning barcha mamlakatlari bilan raqobat va o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga asoslangan mamlakat sifatida shakllanmoqda.

Xitoyning Qozog'istonning metallurgiya sohasiga kirib kelishi so'nggi yillarda boshlandi. XXR allaqachon Qozog'iston Respublikasida aluminiy ishlab chiqarish zavodi qurilishini boshlab yuborgan, mahsulotning katta qismini Xitoyga eksport qilish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda Qozog'iston Respublikasida Xitoyning China Telecom, Bell-Alcatel, Shenzhen Zhongxing Telecom Equipment Corporation (ZTE) va Huawei Technologies kompaniyalari ishlab turibdi. Mazkur korxonalar simsiz aloqani rivojlantirish va telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha qator loyihalarni amalga oshirmoqdalar.

Xitoyning Qirg'izistondagi iqtisodiy ishtiroki Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) va Qirg'iziston Respublikasi (QR) o'rtasida iqtisodiy aloqalar Sobiq Ittifoq parchalanganidan so'ng, ikki davlat o'rtasida 1992-yil 5-yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan keyin boshlandi. Xitoy Qirg'iziston iqtisodiyotiga kirib kelganda, munosabatlar, asosan, savdo sohasi doirasibilan cheklanib qolgan edi.

Garchi XXRdan Qirg'izistonga tovar yetkazib berish hajmi aytarli darajada katta bo'lmasa-da, Xitoy uchun ushbu respublika nafaqat o'z mahsulotini sotish bozori sifatida, balki Markaziy Osiyoga va, umuman, sobiq sovet respublikalariga savdo ekspansiyasi uchun strategik ko'priq sifatida muhim. O'z navbatida, Qirg'iziston nafaqat o'z bozorini arzon xitoy tovarlari bilan to'ldirmoqda, balki ularni Markaziy Osiyoning boshqa respublikalariga (asosan, O'zbekistonga) va, hatto, Rossiyaning bir qator hududlariga reeksport qilish hisobiga qo'shimcha daromad olmoqda. Mazkur daromadni baholash juda murakkab masala, biroq ba'zi ekspertlarning fikricha, reeksport Qirg'izistonga yiliga kamida 250 mln. AQSH dollari miqdorida daromad keltiradi, bu taxminan respublikaning davlat budjetiga teng.

Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik tinimsiz rivojlanmoqda, Xitoy Tojikistonga milliy iqtisodiyotni tiklashda faol yordam bermoqda, 92,55 mln. xitoy yuani miqdorida beg'araz yordam ko'rsatdi. Mablag' Kulom shifer zavodi qurilishi, Tojikiston telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish va shu kabi maqsadlarga sarflandi. Hozirda Dushanbe shahri va Tojikistonning boshqa shaharlari ko'chalari bo'ylab Xitoy tomonidan berilgan 60dan ortiq avtobus aholiga xizmat qilmoqda. Ushbu avtobuslar xitoy va tojik xalqlari o'rtasidagi do'stlik hamda yaxshi qo'shnichilik belgisiga aylandi. Bundan tashqari, XXR hukumati Tojikistonga Dushanbe tamaki fabrikasini qayta qurish, "Rishta" ip-yigiruv fabrikasi qurilishi va boshqa ob'yektlar uchun bir necha o'n million xitoy yuaniga teng miqdorda imtiyozli kreditlar ajratdi. Xitoyning Singjiang shahridan kelgan mutaxassislar Sug'd viloyatining paxta dalalarida tomchilab

sug'orish bo'yicha tajribalar o'tkazib, katta natijalarga erishdilar va ularning tajribasi Tojikiston bo'yicha keng tatbiq etiladi.

Tojikiston bozori SUAR korxonalari mahsulotlarini sotish bozorlaridan biri, lekin shu bilan uning ahamiyati chegaralanib qolmaydi. Bu jihatdan Xitoy uzoq kelajakni ko'zlamogda, Afg'onistonda vaziyat barqarorlashganidan so'ng keng ko'lamli xalqaro hamkorlik boshlanadi, shunda Xitoyga janubiy Osiyoning g'arbiy qismiga, Afg'onistonning shimoliy va g'arbiy qismlari, Turkmaniston va Eronga yo'l ochiladi. Xitoy Pokistonga olib boruvchi va Janubiy Osiyoning sharqiy qismiga chiquvchi yo'lga ega. Tojikiston esa ushbu mintaq bilan aloqalarni kengaytirish imkoniyatini beradi.

Xitoy Turkmaniston olib borayotgan "mangu neytralitet" siyosatini doimo hurmat qiladi. Turkmaniston esa Xitoy siyosatiga qat'iy rioya qilmoqda. Bundan tashqari, tomonlar xalqaro va mintaqaviy ishlarda kelishilgan holda ish tutgan holda, xalqaro maydonda manfaatli hamkorlikni amalga oshirmoqdalar.

Xitoy va Turkmaniston iqtisodiyotiari bir-birini to'ldirishga qodir va ulkan salohiyatga ega. Xitoy-turkman gaz quvuri qurilishiga asos solinishi bilan savdo va iqtisodiyot, energetika, moliya va telekommunikatsiya sohasidagi pragmatik hamkorlik ham har tomonlama rivojlanishni boshladi. Bundan tashqari, tomonlar transport, kimyo sanoati, to'qimachilik sohasi va qurilish materiallari sanoatida hamkorlikni faollashtirishga tayyorlar. Terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurashishda hamkorlik to'g'risidagi Kelishuvga rioya qilgan holda Xitoy va Turkmaniston xavfsizlik borasidagi hamkorlikni ham chuqurlashtirmoqdalar.

Bugun Xitoy savdo va investitsiyalari hajmining asosiy qismi Qozog'iston ulushiga, avvalo, uning neft va gaz sanoatiga to'g'ri keladi. XXR bilan chegaradosh Qirg'iziston bilan savdo faol rivojlanmoqda. O'zbekistonga kelganda, vaziyat birmuncha murakkab, bu yerda investitsiya uchun sharoit ancha qat'iy va Xitoydan oldin kelgan Janubiy Koreya korporatsiyalari mustahkam joylashib olgan. Tojikistonning kelajagi to'g'risida so'z yuritishga hali vaqtli, chunki ushbu mamlakatning iqtisodiy muhitida siyosiy va geosiyosiy beqarorlik omillari muhim

o'rin egallab turibdi. Turkmaniston - bu alohida jihat, shuning uchun bu masalaga xitoy hukumati doimiy neytrallik siyosati ostida munosabat bildiradi.

XXR o'z oldiga yangi texnika va texnologiyalar yordamida alternative energiya resurslaridan keng foydalanish va atom energetikasi evaziga energiya iste'moli tarkibini o'zgartirishni maqsad qilib qo'ygan. 2020-yilga kelib, energetikaga bo'lgan ehtiyojining barqarorligini 14-15% atrofida ushlab turish ko'zda tutilmoqda. Xitoyning hozirgi kundagi ulushi 12 %ni tashkil etadi⁴³.

Hozirgi kunda XXR ananaviy energetik resurslardan foydalanishni ma'lum miqdorda cheklash va bir xillikdan voz kechish siyosatini olib bormoqda. XXr yaqin kelajakda alternative energiya resurslaridan keng qamrovda foydalanishni va kam harajatli energiya resurslarni yaratish ustida muayyan ishlarni olib bormoqda.

2003-yilda siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnik va madaniy –ijtimoiy rivojlantirish to'g'risida qator hujjatlar imzolanganidan keyin Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi ishtiroki har jihatdan o'sishni boshladi.

Xitoy bilan O'zbekiston o'rtasidagi eng katta 10 ta yirik qo'shma korxonalar⁴⁴:

11. "Elektron hisoblagich" 2004-yilda (O'zbek energo bilan);
12. "UzCnpetroleum" 2005-yilda;
13. "Mingbulokneft" 2008-yilda;
14. "AziaTransGaz" 2008-yilda;
15. "Timuchin" 2008-yilda (Qashqadaryoda sutkasiga 3800ta shifer ishlab chiqaradi);
16. "Farbayteksnoteks" 2008-yilda (pilla qayta ishlash);
17. "Pengsheng" 2008-yilda (Sirdaryoda keramika ishlab chiqarish bo'yicha);
18. "Aslqog'oz" 2009-yilda (Sirdaryoda qog'oz ishlab chiqarish)

⁴³ Nigmanov A.U. "Ilm-fan va barkamol avlod". "XMI va mamlakatshunoslik" fakulteti bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent 2010-yil.

⁴⁴ Maxmudov E.A. "O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida AKT sohasi" o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2013 y

19.“Energozashita silver star” 2010-yilda (electron jihozlarni ishlab chiqaradi);

20.“Kristal’fuinindustries” 2010-yilda (qurilish materiallari ishlab chiqaradi).

O'zbekistonning telekommunikatsiya sohasi borgan sari Xitoy kompaniyalari diqqat markazidan o'rin olmoqda. Hozirda O'zbekiston bozorida Xitoyning ZTE, Huawei Technologies Co. Ltd. va Alcatel Shanghai Bell kompaniyalari faoliyat olib borayotgan bo'lib, O'zbekistonda qator loyihalarni amalga oshirmoqdalar.

O'zaro savdo aylanmasi hajmining barqaror o'sib borayotgani ham qiqqatga sazovordir. Masalan, so'nggi 6 yildagi mamlakatlarimiz o'rtasidagi Tovar ayrboshlash hajmi qariyb 6 barobarga oshdi va 2013-yilda 5.2 milliard dollarga yetdi⁴⁵. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil iyun oyida Xitoyga tashrifi chog'ida 30 dan ortiq investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan 5.3 mlrd dollardan ziyodroq miqdordagi hujjatlar imzolangan. XXR raisi 2013-yil sentabr oyidagi O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida umumiy qiymati 15 mlrd dollarga teng loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan 31 ta hujjat imzolandi. Ushbu hujjatlarda 7.7 mlrd dollarlik moliyaviy resurslar, shu jumladan, Xitoy kompaniyalarining 1.3 mlrd dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari, ushbu mamlakat banklarining 6.1 mlrd dollarga teng bo'lgan kredit mablag'lari va 0.3 mlrd dollarlik davlat grantlari jalb etish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda xirij kapitali ishtirokidagi 466 ta korxona, jumladan, to'la Xitoy sarmoyasi bilan tashkil etilgan 77 korxona faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda Xitoyning 71 kompaniyasi o'z vakolatxonasini ochgan.

Yonilg'i energetika kompleksida ham Xitoy bilan hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurining 4 ta tarmog'i ham O'zbekiston Respublikasi hududidan o'tishi neft-gaz sohasida yuksak darajadagi o'zaro ishonch va yaqin hamkorlikdan dalolat beradi.

Bu kabi xulosalarni chegarasiz keltirish mumkin. Chunki endilikda Xitoy hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zaro barcha sohalar va yo'nalishlarda

⁴⁵Uza.uz

hamkorlikni kuchaytirish yo'liga o'tib olmoqdalar. Eng asosiysi, Markaziy Osiyo davlatlari hamda Xitoyda bir-biriga kerak bo'lgan vositalar keragicha topiladi. O'z navbatida Markaziy Osiyo mamlakatlari Xitoyni yirik investor sifatida ushlab turishlari bu faqatgina foyda bo'lishi mumkin. Chunki mamlakatlarimiz aloqalari bir necha ming yilliklarni tashkil etishi ham buning mustahkam asosi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI VA PREZIDENT ASARLARI

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
- 1.3. Karimov I.A. Jahon moliyaiy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: "O'zbekiston", 2009. - 11-bet.
- 1.4. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – Т.: Узбекистон, 1997.-С.275-276
- 1.5. Каримов И.А. “Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш — тараққиётимизнинг муҳим омилидир”.Президент Ислон Каримов ЎЗР Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси.07.12.2010 й. www.press-service.uz
- 1.6. Выступление Президента Республики Узбекистан И.А.Каримов на саммите ШОС. Ташкент. 2010.
- 1.7. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор иқтисодиётига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: “Ўзбекистон”. 1993. – 128 б.

2. Maxsus adabiyot va darsliklar

- 2.1. Ходиев Б. ва бошқ. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2009. – 11-бет.
- 2.2. Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh. “Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi”. O’quv qo’llanma. Toshkent 2011. 120bet
- 2.3. Maxmudov E.A. “O’rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida AKT sohasi” o’quv qo’llanma. Toshkent.: 2010 y
- 2.4. Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России//Вестник Российской Академии наук.– М., 1996. № 9.– с.771.
- 2.5. Федосеева Г.А. Мировая экономика и международные экономические отношения: Практикум – М.: ИНФРА – М, 2002.
- 2.6. Хасбулатов Р.И. Мировая экономика. В 2 кн. – М., 2001.
- 2.7. Гельбрас В.Г.Цена экономических успехов Китая // МЭ и МО. - М., 2007. -№9.-стр.26-34;Глобализацияэкономики Китая / Ред. В.В. Михеев. М., 2003. - 391 стр.
- 2.8. Новоселова Л.В. О реализации инвестиционнойсоставляющей стратегии экономического роста в КНР // Российский экономический журнал. - М., 2006. -№4. - стр. 63-72.
- 2.9. Каукенов А. Казахстан и Китай: состояние и перспективы сотрудничества // Китай и страныЦентральной Азии в современных геополитических условиях. Сборник статей. / Под ред. Л.Музапаровой. -Алматы: Центр по изучению Китая при ИМЭП, 2008. - стр. 39-43.
- 2.10. Кузык Б.Н., Титаренко М.Л. Китай-Россия 2050: стратегия соразвития. М.: ИДВ РАН, 2006. - 653 стр.

- 2.11. Ходжаев А.Б. Фактор энергетической безопасности в экономических приоритетах Китая и Узбекистана: Автореф. дисс. к.э.н. - Т., 2009.
- 2.12. Абулқосимов Ҳ.П. Иқтисодий хавфсизлик. – Т., Академия. 2006. 27-б.

3. Jurnal va maqolalar

- 3.1. Портяков В.Я. О перспективах развития Китая // Проблемы Дальнего Востока. - М., 2005. - №5. - стр. 44-61.
- 3.2. Потапов М.А. Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. - М., 2004. - 236 стр.
- 3.3. Смаилова Г. Новые возможности торгово-экономического сотрудничества КНР и государств Центральной Азии в рамках ВТО // Китай и страны Центральной Азии в современных геополитических условиях. Сборник статей. / Под ред. Л.Музапаровой. -Алматы: Центр по изучению Китая при ИМЭП, 2008. - стр. 87-90.
- 3.4. Ба, Цзиньсинь. Формирование транснациональных корпораций в Китае // Проблемы Дальнего Востока. - М., 2005. - №5. - стр. 97-103.
- 3.5. Ли, Теин. Развитие китайской экономики в XXI веке: проблемы и перспективы // Халқаро муносабатлар. - Т., 2001. - №4. - стр. 13-19.
- 3.6. Huang, Yesheng. Selling China: Foreign Direct Investment During the Reform Era. - NY: Cambridge University Press, 2007. - 384 p.
- 3.7. Асадуллаева И.Р. Хитой ташқи иқтисодий фаолиятига глобаллашувнинг таъсири: умумжаҳон тенденциялар ва намоён бўлиш хусусиятлари: Дисс. и.ф.н. -Т., 2006.
- 3.8. Исаджанов А.А. Внешнеэкономическая политика Китая в условиях глобализации // Халқаро муносабатлар. - Т., 2009. - №1. - стр. 30-36.
- 3.9. Бюллетень экономической информации по материалам китайской прессы за январь 2007г. МЭРТ.

- 3.10. Губайдуллина Ф. ПИИ, деятельность ТНК и глобализация // Мировая экономика и международные отношения. – 2003. - № 2. – С. 42.
- 3.11. Гельбрас В. Цена экономических успехов Китая // Мировая экономика и международные отношения. – 2007. - № 9. – С. 26.
- 3.12. Бергер Я. Большая стратегия Китая в оценках американских и китайских исследователей // Проблемы Дальнего востока. – 2006. - № 1. – С. 34.
- 3.13. Cheng Ning, “The Current Situation in Central Asia”, ISS, 3-2005
- 3.14. TDSHI. “Ilm-fan va barkamol avlod”. “XMI va mamlakatshunoslik” fakulteti bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi. Maqolalar jamlanmasi. Toshkent 2010-yil. 124 bet
- 3.15. TDSHI. “Yoshlar va ilm-fan”. XMI va Mamlakatshunoslik fakulteti, mustaqil tadqiqotchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy amaliy konferensiyasi. Maqolalar jamlanmasi. 25-may 2012-yil
- 3.16. TDSHI “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlari, asosiy saboqlari va milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta’siri” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Maqolalar jamlanmasi. 2011-yil 25-aprel. 232 bet

4. Internet resurslari

- 4.1. Синьхуа Агентлиги. / <http://www.russian.xinhuanet.com/russian/>.
- 4.2. Деловой журнал "ChinaPRO" - Весь Китай. Статьи / <http://www.chinapro.ru/articles/>.
- 4.3. <http://www.o-kitae.ru/istoriya-ekonomiki-kitaya/ekonomika-kitaya.html>.
- 4.4. <http://www.globalaffairs.ru/numbers/16/4795.html>
- 4.5. www.press-service.uz
- 4.6. <http://www.sipri.org/contents/publications/Policypaper17.html#download>
- 4.7. <http://www.UzA.uz>